

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA - PSIXOLOGIYA FAKUL'TETI
DEFEKTOLOGIYA KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”

Pedagogika - psixologiya fakul'teti dekani

_____ dots R. Abdurasulov

“ ___ ” _____ 2014 y.

5141800 – Defektologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr

darajasini olish uchun

“ NUTQ KAMCHILIKLARINI BARTARAF ETISHDA

DIFFERENSIALLASHGAN METODLARNI TANLASH USULLARI ”

MAVZUSIDA BAJARILGAN

BITI RUV MALAKAVIY ISH

Bajaruvchi: Xaydarova Sabina

Ilmiy rahbar: t.f.n. G`.Arifxodjaev

Ishni himoyaga tavsiya etaman t.f.n. G`.Arifxodjaev _____

(imzo)

BMI Defektologiya kafedrası yig'ilishining qarori bilan

(Qaror № ___, __.05.2013 y) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri t.f.n: G`.Arifxodjaev _____

(imzo)

JIZZAX - 2014

MUNDARIJA

KIRISH3-7

I-BOB. Nutq kamchiliklari va ularni bartaraf etish metodlari

1.1. Bog'cha yoshidagi bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklari va nutqning buzilish sabablari.....8-14

1.2. Maktab yoshidagi bolalarda nutq kamchiliklarini aniqlash va bartaraf etish usullari.....15-27

II-BOB Bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini bartaraf etishda qulay samarali texnologiyalardan foydalanish.

2.1. Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda didaktik o'yinlar va ulardan foydalanish usullari28-34

2.2. Bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini bartaraf etishda og'zaki nutqni o'stirish texnologiyalari35-45

XULOSA46-47

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI48-49

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim tug'risida"gi Konuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi Respublikamizda ta'lim tizimini islox qilish, o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish va zamonaviy talablar darajasiga kutarish, yangi pedagogik texnologiyalarni ta'limga joriy etish, yosh avlodning yosh xususiyati, bilish faoliyati, tafakkuri, iktidorini nazarda tutgan xolda ta'lim-tarbiya berish, davlat dasturlari, ta'limning davlat meyorlariga mos bulgan bilim va malakalarni shakllantirishga imkoniyat yaratdi, xar bir fukaroga Uzbekiston Konstitutsiyasining 29-moddasida ifoda etilgan "Xar kim fikrlash, suz va e'tikod erkinligiga egadir", 41-moddasida ifoda etilgan "Xar kim bilim olish xukukiga egadir, bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi" degan xukukidan tula foydalanish imkoniyatini berdi, mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimi joriy etildi.

Demak, yurtimizda xar bir inson o'z extiyojidan kelib chiqqan xolda qobiliyatini rivojlantirish, ijtimoiy xayotda o'z o'rnini topish imkoniga ega buldi. Chunki Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri yoshlarning bilimli, akl-zakovatli bulishlari, xar kandy sharoitda uz bilimi, akl zakovatiga ishongan xolda faoliyat kursatishi, uz ona tilida anik, ravon, erkin fikrlashini shakllantirishdan iboratdir. Shu bois Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab o'z ilmi, malakasi, teran fikri bilan Respublikamizning iqtisodiy, ma'naviy extiyojiga mos keladigan, yuksak malakali mutaxassislar tayyorlashga axamiyat berildi.

Demak, Mustaqil Respublikamizda yoshlarga ta'lim berish, fanlarni o'rgatish bilan birga ularni mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash vazifasi belgalandi. Chunki fikrlash til va nutq, tafakkur bilan boglik bulib, fikrlash jarayonida faraz, mushoxada, isbotlash, taxlil kilish paydo buladi, akliy faoliyat, ongli xarakat, akl-zakovat, maksad sari intilish, tafakkur shakllanadi, fikr esa nutq orkali ifoda etiladi.

Maxsus ta'limta'limdan boshlab bolalar nutqini bartaraf etish og'zaki nutqini o'stirish, ularni ko'rgan, eshitgan vokea xodisalari xakida eslab kolganlarini erkin fikrlash orqali bayon qilish, o'z fikrini tushunarli, tartibli ifodalash bilan birga ijodiy fikr yuritishga xam o'rgatiladi, chunki nutq tufayli inson o'zaro fikrlashadi, muloqot qiladi.

Bolalar nutqini o'stirish, ularni fikrlashga, uni boshqalarga tushunarli bayon etishga o'rgatish, bolalarning "obrazli, mantikiy, ijodiy, abstrakt" fikrlashini shakllantirish va nutq o'stirish metodlarining o'rni, moxiyati muximdir. Shuning uchun xar bir tarbiyachi pedagogning ta'lim metodlarini puxta bilishi, bolalar nutqini rivojlantirishning eng qulay metodlarini tanlashi va qo'llay olishi, uni takomillashtirishi lozim.

Bolalarni yoshlikdan u yoki bu narsa, buyum, o'yinchok, vokea-xodisa xakida fikr yuritish, fikrni bayon kilish uchun mos suz tanlashi, fikrni nutq orkali ifodalashi kabi murakkab jarayonni boshkarishning eng kulay yuli, usulini tanlay bilishni talab etadi.

Demak, ta'lim metodi va usullarining mazmuni tarbiyachi-pedagog va tarbiyalanuvchilarning tartibga keltirilgan o'zaro munosabati, nutqiy faoliyati shakli bo'lib, ta'limda maqsadga erishish yo'lini ifodalaydi.

Ushbu jixatdan qaraganda ta'lim metodlari ko'p qirrali bo'lib, uni bir necha tomondan o'rganish, turkumga ajratish mumkin. Shuning uchun xam pedagogikada ta'lim metodlari, ta'lim mazmuni, uni o'zlashtirish, o'quv jarayoni maqsadi, o'quv faoliyatini boshqarish, bilish faoliyati xususiyatlari, aqliy faoliyatni tashkil etish kabi jixatdan turkumga ajratiladi. Yosh avlodni har tomonlama rivojlangan barkamol inson shaxsini shakllantirish davrimizning dolzarb muammolari hisoblanadi. Chunki, ona vatanimizning kelajagi bugungi yoshavlodning ilmiy salohiyati, iste'dodi, mustaqil fikrlashga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun xam bilimdon, keng dunyoqarashiga ega barkamol va manaviy etuk shaxslarni tarbiyalab etishtirish vazifasi davlatimiz siyosatining ustuvor darajasiga ko'tarildi.

Maktab yoshidagi logopat, ya'ni nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar uchun ommaviy umumiy ta'lim maktablarida logopedik punktlar tashkil etilgan. Tekshirishlar natijalari logopedik xulosalarda yakunlanadi. Logopedik xulosalar asosida bola bilan olib borilishi kerak bo'lgan chora –tadbirlar, reja tuziladi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar me'yorda rivojlanayotgan tengdoshlari orasidagi xarakterli farqlardan biri – ruhiy jarayonlarning etarli rivojlanmasligi hisoblanadi. Rivojlanishi orqada qolgan bolalarning umumiy tavsifi uning verbal imkoniyatlari doimo past ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, bola nutqining rivojlanish darajalari va intellekti orasida o'zaro murakkab munosabatlar hukm suradi. Maxsus usullar yordamiad bolalarni faqat lozim bo'lgan so'zlarning ma'nosini tushuntiribgina qolmasdan, balki undan o'z nutqida faod qo'llashga o'rgatib boriladi. Bilish faoliyatining holati, atrofdagilar bilan bolaning muloqatga kirishish imkoniyati, odob – axloq normalarini o'zlashtirish, ijtimoiy adaptasiyaning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan bola nutqining rivojlanish darajasiga bog'liq. Nutqida nuqsoni bor bolalar bilan olib boriladigan ta'lim tarbiya jarayonida bolalar quyidagi bilim, ko'nikma, malakalar bilan

Shu maqsadni amalga oshirish uchun biz tadqiqotimizning maqsadini va ustivor vazifalarini belgilab oldik.

Tadqiqotning maqsadi: nutq kamchiliklarini bartaraf etishning qulay va samarali metodlaridan foydalanish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti: nutq nuqsoniga ega bo'lgan maxsus muassasalar va ta'lim jarayoni.

Tadqiqotning predmeti: nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar va ular kamchiliklari ustida ishlash metodlari, mazmuni, shakli va usullari.

Tadqiqotning vazifalari:

- nutq buzilishining turli shakllarida nutq faoliyatining ontogenezini o'rganish
- nutq buzilishlarining pedagogik diagnostikasi metodlarini ishlab chiqish.
- nutq buzilishlarining keng tarqalganligi, alomatlari va darajalarini aniqlash.

- nutq buzilishini bartaraf etish printsiplari, differentsiyalashgan metodlari va vositalarini ishlab chiqish.

- nutq buzilishining oldini olish metodlarini takomillashtirish.

- logopedik yordamni tashkil etish masalalarini ishlab chiqish.

- o`qituvchi-defektolog va tarbiyachi ishidagi o`zaro bog`liqliqlarni bilish;

Tadqiqotning ilmiy farazi:

Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda qo`llaniladigan metodlardan foydalanishning mazmuni, amalda qo`llanilgan metodlarni faollashtirish, Yangi usullarni muayyan texnologiyasi ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq etilsa ko`zlangan natijaga erishish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda noan`anaviy usullarni qo`llash yo`llari ishlab chiqiladi;

2. Bolalar nutqini o`stirish metodlarining mazmuni, shakli va ahamiyati ishlab chiqiladi;

3. Nutq kachiliklarini bartaraf qiluvchi metodlarining yangicha texnologiyasi yaratiladi;

4. Nutq kamchiliklarini bartaraf etishning qulay va samarali metodlari mavzusiga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati:

1. Yakka tartibdagi frontal mashg`ulotlarda to`g`ri nutq va xulk-atvor ko`nikmalarini tarbiyalash bo`yicha qo`shimcha mashg`ulotlar o`tkazishni (noto`g`ri talaffuz etishni tuzatish, ruhiy ko`rinishdagi suhbatlar va hokazo)yo`lga qo`yish. Maxsus ta`limtarbiya yoshdagi bolalarning nutq rejimi kattalarning keng ko`lamli yordami orqali amalga oshiriladi. Bunda ular bolalarning bir nutq bosqichidan boshqasiga o`tishini muntazam nazorat qilish. Nutq mashklarini tanlab olishni, ular tomonidan to`g`ri nutq talablarini, turli sharoitlarda to`g`ri nutq ko`nikmalarini mashq qildirilishini nazarda tutadi.

2. Nutq kamchiliklarini bartaraf qilishda qo`llaniladigan metodlari yordamida o`qitishning eng qulay va oson yo`llari yaratiladi.

Tadqiqotning metodologik asosi:

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta'lim-tarbiyaga oid asarlari, O`zbekiston Respublikasining «Ta'lim to`g`risida»gi Qonuni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», maxsus Maxsus ta'limtarbiya muassasalari va maxsus maktab ta'limi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan me'yoriy hujjatlar hamda mavzuga oid ilmiy korreksion pedagogika va logopediyaga doir metodik manbalar.

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:

- *nutq buzilishlarining keng tarqalganligi, alomatlari va darajalarini aniqlas* dolzarb muammo ekanligi;

- bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklarini bartaraf qiluvchi metodlarining mazmuni, mohiyati;

- bolalar nutqini faollashtirish metodlarining texnologiyasi;

- nutq kamchiliklarini bartaraf qilish yuzasidan ilmiy - metodik tavsiyalar va ularning samaradorlik darajasi.

Ishning tarkibiy tuzilishi:

Ish kirish, 2 bob, 4 ta paragraf, xulosa, ilova va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I. BOB. NUTQ KAMCHILIKLARI VA ULARNI BARTARF ETISH METODLARI

1.1. Bog'cha yoshidagi bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklari va nutqning buzilish sabablari

O'zbekiston kelajagi bo'lgan yoshlarning bilimdonligi ma'naviy kamolotining g'oyaviy yetukligi davrimizning dolzarb masalalaridan biridir. Bizning mamlakatimizda aholiga ko'rsatiladigan differentsiyallashgan logopedik yordam keng rivojlangan. Bu yordam xalq ta'lim va sog'liqni saqlash sohalari orqali amalga oshiriladi. Hozirgi kungacha nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarga mo'ljallangan oilaviy shifoxonalarda, Maxsus ta'limta'lim muassasalarda, umumta'lim maktablar qoshida logopedik ish yuritilib kelmoqda. Har bir muassasa bir biri bilan bog'langan holda ish olib boradi.

Bog'cha yoshidagi nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolani differentsiyalashgan Maxsus ta'limta'lim muassasasiga joylash uchun oilaviy logopedga murojat qilinadi. Oilaviy shifoxona logopedi nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolani har tomonlama tekshirib, tashhis qo'yadi va Tibbiy pedogogik komisiyaga (TPK) ga borish uchun yo'llanma beradi. Yo'llanmada bolaning ismi, sharfi, tug'ilgan yili, oyi, turar joyi, tashhisi, yo'llanma berilgan sanasi, logopedning ismi, sharifi, imzosi ko'rsatilgan bo'ladi .

Tibbiy pedogogik komisiyaga quydagi xujjatlar bilan murojat qilinadi: otoloringologning xulosasi, psixonevrologning xulosasi, logopedning yo'llanmasi, ommaviy bog'chaga borgan bo'lsa tarbiyachinig xarakteristikasi, pediatrdan ma'lumotnoma. Bu ma'lumotlar ota-ona tomonidan yig'iladi.

Nutq buzilishlariga ega bo'lgan guruhiga bolalarni ajratish va kompletlash ishi viloyat (shahar, tuman) halq ta'limi bo'limida tuzilgan tibbiy pedogogik komissiya shug'ullanadi.

Uning tarkibida quydagilar ish yuritadi.

- halq ta'limi bo'limi vakili – komissiya raisi.

- komissiya a'zolari: bolalar psixonevrologi, maxsus Maxsus ta'limta'lim muassasa rahbari (muruvat uyi direktori , bog'cha mudirasi) katta logoped, (viloyat, shahar,tumanning) bog'cha logopedlari.

- komissiya kotibi.

Bolalarni ro'yxatga olish jurnalida quydagi ma'lumotlar olinadi: hisobga qachon olinganligi, bola haqida umumiy ma'lumot, kim tomonidan kelganligi, mutaxasislarning tashhis xulosalari, tibbiy pedogogik komissiya bolalarni qabul qilishi, tibbiy pedogogik bolalarni chiqarish bo'yicha.

Protokolda bolaning ismi, sharifi, bolaning tug'ilgan kuni, nutq rivojlanishi, eshitish qobiliyati, aqliy rivojlanishi, intellekt holati tekshirilib xulosa tashhisi va tavsiyalar qayd qilinadi, shu bilan birga tekshirish vaqtidagi umumiy ahvoli ko'rsatiladi.

Ro'yxat asosida halq ta'limi bo'limida bolalarga TPK ko'rsatgan Maxsus ta'limmuassasasiga yo'llanma beriladi .

Nutqida nuqsonga ega bo'lgan bolalar Maxsus ta'limta'lim muassasalarining asosiy vazifasi korreksion ta'lim natijasida boladagi nuqsolni to'liq yoki qisman bartaraf etish va uni ommaviy umumta'lim maktabida yoki og'ir nutq nuqsonga ega bo'lgan bolalar maktabida muvaffaqiyatli ta'lim olishga tayyorlashdan iborat.

Bolalarga ta'lim tarbiya berishda defferentsiyalashgan yondashuvga erishish uchun Maxsus ta'limta'lim muassalarida (MTM) quydagi guruxlar tashkil etiladi.

- Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar (NTR).
- Fonetik – fonematik nutq buzilishiga ega bo'lgan bolalar (FFNR)
- Alohida tovushlar talaffuzidagi nuqsonga ega bo'lgan bolalar (FNR).
- Duduqlanuvchi bolalar.

TPKyo'llanmasi bilan kelgan nutq nuqsonga ega bo'lgan bola (tashhisi bo'yicha guruhga taqsimlanadi) yoshi, nutqiy nuqsoni, nutq rivojlanganligi holatiga ko'ra guruhga qabul qilinadi.

Bolalar guruhga kelgan so'ng ikki xafta davomida ular nutqini maxsus logopedik tekshiruvdan o'tkaziladi.

Ular passiv, aktiv lug'atiga gramatikasiga, fonematik idrokiga, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarga, artikulyatsion apparatiga, mayda qo'l matorikasiga e'tibor beradilar va bu ma'lumotlar nutq kartaga qayd qilib boriladi, logoped tomonidan tashhis qo'yiladi.

Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarni o'z vaqtida aniqlash, guruhlarni to'g'ri tashkil etish va Maxsus ta'lim bolalarga ta'lim tarbiya berishda ijobiy natijalariga erishish hamda keyingi rivojlanish va maktabdagi ta'limga tayyorlash uchun qulay sharoitlar imkonini beradi.

Bolaning nutqi kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi. Nutqning to'g'ri shakllanishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to'g'ri nutq muhiti va ta'lim-tarbiyaga bog'liq.

Nutq tug'ma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanib boradi.

Nutq buzilishlarini o'rganish, tushunish uchun bola nutqining normal rivojlanish yo'lini, bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini, nutqning muvaffaqiyatli shakllanishida katta rol o'ynovchi sharoitni bilish lozim.

Bundan tashqari bola nutqining rivojlanish davrlarini aniq bilish zarur. Bu esa nutqning rivojlanishi jarayonidagi u yoki bu kamchiliklarni o'z vaqtida bilish va aniqlash uchun kerak bo'ladi.

G.L.Rozengrad-Pupko bolada nutq rivojlanishini ikki davrga ajratadi:

- 1) tayyorlov davri (2 yoshgacha);
- 2) nutqning mustaqil shakllanish davri.

A.N.Leontev bola nutqining shakllanishini 4 davrga bo'lib ko'rsatadi:

- 1) tayyorgarlik davri – bola tug'ilgandan bir yoshgacha;
- 2) bog'chagacha bo'lgan davr – 3 yoshgacha;
- 3) Maxsus ta'limbo'lgan davr – 7 yoshgacha;
- 4) maktab davri.

Bola tug'ilgan daqiqadan boshlab ovoz chiqaradi. Bu ovoz qichqiriq va yig'idan iborat bo'ladi. To'g'ri, bu ovoz odam nutqidan uzoq. Lekin ana shu

qichqiriq va yig'i nutq apparatining 3 bo'limini (nafas olish, ovoz hosil bo'lish, artikulyasion) rivojlanishida katta rol o'ynaydi.

Ikki hafta o'tgach, bola gapirayotgan odamning ovozigga e'tibor bera boshlaydi. Bir oyligining oxiriga borib, uni mayin qo'shiq (alla) ostida tinchlantirish mumkin bo'lib qoladi. Tez kunda bola intonasiyaga e'tibor bera boshlaydi: mayin gapirganda tinchlanadi, keskin intonasiyaga – yig'laydi.

Ikkinchi davr – bog'chagacha bo'lgan davr (bir yoshdan 3 yoshgacha).

Bolada birinchi so'zlar paydo bo'lgandan so'ng, tayyorlov davri tugab, aktiv nutqni egallash davri boshlanadi. Bu vaqtda bola atrofdagilar artikulyasiyasiga e'tibor beradi. U gapirayotganlar orqasidan so'zlarni ko'p marotaba takrorlaydi va o'zi ham so'zlarni talaffuz qiladi. Bola hayotining 2-3 yiliga kelib, uning lug'at boyligi sezilarli darajada boyib boradi.

Bola hayotining 3-yiliga kelib, nutqning grammatik tomoni shakllana boshlaydi. Avval bola o'z xohish va iltimoslarini bir so'z bilan ifodalaydi. Keyinchalik 1-2 ta so'zdan iborat sodda jumlar paydo bo'la boshlaydi.

Uchinchi davr – Maxsus ta'limbo'lgan davr (3 yoshdan 6 yoshgacha).

Maxsus ta'limbo'lgan davrda bolalar birinchi navbatda artikulyasion jihatdan oson talaffuz etiladigan: lab-lab, lab-til undoshlari - *p, b, m, f, v* va boshqalarni o'rganadilar. Artikulyasion jihatdan talaffuz etish qiyin bo'lgan: shivirlovchi, sirg'aluvchi (*s, z, sh, j, ch*) va sonor (*r, l*), til orqa (*k, g*) tovushlarini talaffuzini egallashda qiynaladilar. Shuning uchun bolalar bu tovushlarni nutqda noto'g'ri qo'llaydilar yoki talaffuz etmaydilar.

Bu davrda fonematik idrok sezilarli darajada rivojlanadi. Bola avval unli va undoshlarni, so'ng sonor, shovqinli va sirg'aluvchi tovushlarni ajrata boshlaydi. Normada 4 yoshli bola barcha tovushlarni ajrata olishi, unda fonematik idrok shakllangan bo'lishi lozim. Bu vaqtga kelib tovushlarni to'g'ri talaffuzining shakllanishi tugallanadi va bola har tomonlama to'g'ri, aniq gapiradi.

Nutq kamchiligi logopediya fanida muayyan tilning me'yorlaridan chetga chiqish deb ta'riflanadi.

Nutq kamchiliklari quyidagilar bilan xarakterlanadi:

1. Nutq kamchiligi o`z-o`zidan barham topmaydi, balki vaqt o`tgan sari yanada mustahkamlanib, zo`rayib boradi.

2. Nutq kamchiliklarini kattalarda namoyon bo`lishi ularning yoshiga mos kelmaydi.

3. Nutq kamchiligiga ega bo`lgan kishilar logopedik yordamga muhtoj bo`ladilar.

4. Og`ir nutq kamchiliklari bolaning nafaqat nutqiga, balki uning umumiy rivojlanishiga ham salbiy ta`sir ko`rsatadi.

Bolalarda nutq buzilishini yuzaga keltiruvchi sabablar ichida tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillar, shuningdek atrof-muhitning tashqi sharoitlari farq qilinadi.

Nutqiy nuqsonning turli sabablarini ko`rib chiqishda evolyusion-dinamik yondoshiladi. Bu nuqsonning yuzaga kelish jarayonini tahlil qilishdan, anomal rivojlanishining umumiy konuniyatlarini va xar bir yosh davrida Nutqning rivojlanish konuniyatlarini hisobga olishdan iboratdir (I. M. Sechenov, L. V. Vigotskiy, V. I. Lubovski).

Bolalardagi nutqiy nuqsonlarning asosiy sabablari:

1. Embrion rivojlanish davridagi turli xil patologiyalar;
2. Xomiladorlik vaqtidagi toksikozlar, virusli va endokrin kasalliklar, jaroxatlar, qonning rezus-faktorga mos kelmasligi;
3. Tug`ruq vaqtidagi shikastlanish va asfiksiya;
4. Bola rivojlanishining birinchi yilidagi bosh miya kasalliklari (meningit, ensofalit).
5. Miyaning chayqalishi bilan birga sodir bo`ladigan bosh miya jarohatlari.
6. Nasliy faktorlar.
7. Sosial-maishiy sharoitning yomonligi. Bu xolat mikrososial pedagogik qarovsizlikka, vegetativ disfunktsiyaga, emosional-irodaviy muhitning buzilishlariga va nutqning rivojlanmay qolishiga sabab bo`ladi.

Yuqorida ko`rsatib o`tilgan sabablar, ayrim xollarda ularning birgalikda qo`shilib kelishi nutqning turli tomonlarining buzilishiga sabab bo`lishi mumkin.

Psixologik-pedagogik tasnif tibbiy tasniflarni pedagogik jarayonda qo'llanish nuqtai nazaridan tankidiy tahlil qilish natijasida vujudga keldi (bu uslub logopedik ta'sir etish deyiladi). Bunday tahlil logopediyani nutqiy rivojlanishi buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashga jalb etish bilan bog'liq holda juda muhim buldi.

Tadqiqotchilarning e'tibori bolalar jamoasi (o'quv guruhi, sinf) bilan ishlash uchun zarur bo'lgan logopedik ta'sir etish metodlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan edi. Buning uchun bolalardagi nutqning nonormal rivojlanishining turli shakllaridagi nuqsonlarning umumiy ko'rinishi, ayniqsa, o'qish jarayonida tuzatish uchun dolzarb hisoblanganlarini topish zarur edi. Bunday yondashuv buzilishlarni guruhlashda boshqacha prinsipni talab kildi. Bu shunday prinsipki, tibbiy tasniflash (umumiydan xususiyga emas, balki xususiydan umumiy-ga bo'lgan) uning asosiga ko'riladi. Bu uni lingvistik va ruhiy mezonlar asosida ko'rishga imkoniyat yaratdi. Ular orasida Nutq sistemasining tuzilish komponenti (tovush tomoni, grammatik tuzilishi, lug'at zonasi), nutqning funksional jihatlari, nutqiy faoliyat turlarining (og'zaki va yozma) o'zaro aloqadorligi hisobga olinadi.

Keltirilgan tasnifda nutq buzilishlari ikki guruhga bo'linadi.

Birinchi gurux — muomala vositalarining (nutqning fonetik-fonematik va umumiy rivojlanmay qolishi) buzilishi.

1. Nutqning fonetik-fonematik rivojlanmay qolishi - bolalarda ona tilini talaffuz qilish sistemasi shakllanish jarayonlarining fonemalarini idrok etish va talaffuzdagi nuqsonlar oqibatida turlicha Nutq zaiflashuvlari bilan bog'liq ravishda buzilishidir.

2. Nutqning to'liq rivojlanmay qolishi — turli xil murakkab Nutqiy kamchilikdir, bunda nutq sistemasining tovush chiqarish va ma'noli tomonlariga taallukli barcha komponentlarining shakllanish jarayoni buzilgan bo'ladi.

Umumiy alomatleri sifatida quyidagilar kayd qilinadi: nutq rivojlanishining kech boshlanishi, lug'at boyligining kamligi, agrammatizm, talaffuzdagi nuqsonlar, (fonemalar tuzilishidagi nuqsonlar).

Nutqning bunday rivojlanmay qolishi turlicha darajalarda aks etishi mumkin: nutqning yuqolishi yoki uniig noaniq bog'lanishsiz xolatidan mukammal xolatigacha, lekin bunda fonetik va leksik-grammatik rivojlanmay qolish elementlari bo`ladi. Bolada nutq vositalariniig shakllanganlik darajasiga qarab nutq rivojlanmay qolish uch darajag'a bo`linadi.

Ikkinchi gurux — muomala vositalarini qo`llanishdagi buzilish (unga duduqlanish ham kiradi), bu muomala vositalarining to`g`ri shakllangan xolatidagi Nutqning kommunikativ funksiyalarini buzilishi deb qaraladi. Bir necha xil (kombinasiyalangan) nuqson ham bo`lishi mumkin, bunda duduqlanish Nutqning umumiy rivojlanmay qolishi bilan qo`shilib ketadi.

Yuqoridagi tasnifda yozish va o`qishning buzilishi alohida nutq buzilishi sifatida ajratilmaydi. Tasniflashda sistemali yondashuv prinsipiga izchil tayanish aks etadi, uning asosida ikkita o`zaro bog'lanish hisobga olinadi: nutqiy faoliyat sistemasidagi buzilishlarning o`zaro bog'lanishi va bolaning bir ko`rinishdagi ruhiy jarayoni hamda boshqa ruhiy tomonlaridagi buzilishlarning o`zaro aloqadorligi, ularning rivojlanishi nutq bilan uzviy bog'langandir.

1.2. Maktab yoshidagi bolalarda nutq kamchiliklarini aniqlash va bartaraf etish usullari

Mamlakatimizda kadrlarni tayyorlash milliy dasturi, Maxsus ta'limtarbiya muassasalari xodimlari oldiga muhim vazifani-bolalarni maktabda o'qishga psixologik jihatdan tayyorlash, ya'ni boshlang'ich sinflarda muvaffaqiyatli o'qish, boshlang'ich maktabning dasturni to'la o'zlashtirib olish uchun zarur bo'lgan ruhiy sifatlar, bilim, ko'nikma va malakalari tarkib toptirish vazifasini qo'yadi. Bolaning aqliy rivojlanishida og'zaki nutqning vujudga kelishi katta ahamiyatga ega. Tarbiyachi bolaning so'z boyligini aniqlaydi, boyitib boradi va faollashtiradi, bolalarni tovushlarni to'g'ri talaffuz etishga o'rgatadi, og'zaki nutqning turli shakllarigi – monolog (aytib berish, qayta hikoya qilib berish) va dialogga (so'zlashuv yoki savol – javob nutqiga), so'zlarni grammatik jihatdan to'g'ri o'zlashtirish va to'g'ri tuzishga o'rgatadi. Bolalar bog'chasida ham, maktabda ham olib boriladigan tillar ta'lim standartlari, dasturida ko'rsatilgan bilim va malakalarni hosil qilish, shaxsning ba'zi bir xususiyatlarini, hulq-atvorini tarbiyalashga qaratilgan.

Maxsus ta'lim muassasasi ta'lim tizimining eng muhim sohasi bo'lib barkamol avlod asosan ana shu bo'g'inda shakllanadi. Shunga ko'ra Maxsus ta'limta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda bog'lanishli nutqni rivojlantirish ham ta'limning eng muhim tarkibiy qismlaridan bo'lib hisoblanadi. Maxsus ta'limta'lim sohasida bolalarning nutqini rivojlantirish borasida muhim tadqiqotlar olib borilgani xolda bog'lanishli nutqni rivojlantirish, ayniqsa, bu muammoning bolalarda eng samarali davr sanalgan Maxsus ta'limtarbiya yoshidagi bolalarda tevarak-atrofni o'rganish jarayonida nutqini rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir.

Maxsus ta'lim muassasada bolalarning tevarak-atrofni o'rganishda bog'lanishli nutqini rivojlantirish eng zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, fikr va jonli so'z, ona tilining hissiy estetik ma'no qirralarini anglab olish, uning go'zalligi, sofligi, boyligini his etish orqali amalga oshiriladi.

Bizga ma'lumki, juda ko'p mashqlar sayr paytida uyushtiriladi. Masalan, sayr paytida bir bola eshak minib gurux bolalari yonidan o'tib qoladi.

Boshqa bir bola tuzatadi: poezdga chiqiladi, samolyotda uchiladi. Bolalar sayr paytida baland binolar oldidan o'tishlari mumkin. Shunda quruvchilik kasbi, qurilishda ishlatiladigan g'isht, ganch, qum, ohak va boshqa qurilish materiallari, quruvchilik kasbi -ganchkorlik, g'isht teruvchi, suvoqchi; binolarning balandligi, go'zalligi va hokazolar hakida jumlar tuzadilar,

Gulzorlar, borlarga sayohatlar davomida tarbiyachi samolyotlar, poezdpar, gullar, favvoralar hak,ida suhbatlar uyushtirishi mumkin. Suhbatlarda predmetlarning rangi, tusi, soni, katta-kichikligi, turi, o'xshash va farqli tomonlari haqida ham mashq qilib boriladi.

"Nima shirin?", "nima uchadi?", "tushirib qoldirilgan so'zlarni toping", "men boshlayman, siz davom ettiring" kabi mashqlar ham grammatik jihatdan jumalarni to'g'ri tuzishga yo'llaydi.

Nutqning tovush madaniyatini shakllantirish bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishda muhimdir. Bolalar ko'pincha s-z, p-f, t-d, p-b. u-u, x-x,, k-r tovushlarini to'g'ri talaffuz qila olmaydilar. Nutq jarayonida ketappan - ketayapman, Hojaxon -Shoxjaxon, Yustam - Rustam, qaga - qarg'a kabi talaffuz etishda yo'l qo'yadigan xatoliklarning oldini olish, ya'ni to'g'ri talaffuz etishga yo'llash, ovoz balandligiga, tovush sur'atiga e'tibor berish metodik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ba'zi bolalar o'zidan kichiklarni jerkib, ovozini ko'tarib muomala qiladilar. Shunda ular talaffuziga e'tibor qaratish, nutq madaniyatiga, me'yorda so'zlab, muomala qilishga o'rgatish zarur. Chunki bolalikda tarkib topgan muomala madaniyati inson umrining oxirigacha muxrlanib qoladi.

Samimiy muomala me'yori, hatto muomalada ko'z qarashlari, boshqalar oldida o'zini tuta bilish -muomala madaniyatining oddiy talablaridir.

So'zlashuv (dialogik) nutqni shakllantirish, bog'lanishli nutqni tarkib toptirishda eng muhim talablardan sanaladi. So'zlashuv nutqi bolaning lugat boyligiga boglik, bo'ladi.

Bunda bola o`ziga murojaat qilganlarida suhbatdoshini eshita olish, tushunish, savollarga to`g`ri javob bera olish bilan birga, so`zlashuv madaniyatini egallay borishi ham taqozo etiladi. Bolalar bilan suhbat jarayonida ko`proq yo`naltiruvchi savollar beriladi.

Masalan, tabiatga sayohat paytida:

- Hozir yilning qaysi fasli?
- Bahorda tabiatda qanday o`zgarishlar yuz beradi?
- Bahorda qanday qushlar uchib keladi?

kabi savollarning berilishi bolalarning dialogik nutqining rivojlanishiga yordam beradi.

Bolalarning bog`lanishli nutqini rivojlantirishda monologik nutq; (hikoya qilib berish) ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Monologik nutqda yuqorida sanab o`tilgan bog`lanishli nutq talablarining barchasi jamlangan bo`ladi.

Bolalarning monologik nutqining shakllanishi ularni maktabga tayyorlashning asosiy shartlaridan biridir. Zero, bog`lanishli nutq bolalar tafakkurini va unga bog`liq bo`lgan zehni o`tkirlash, zukkolik kabi hislatlarni ham tarkib toptiradi.

Bolalarda hikoya qilish ko`nikmasi uning lug`at boyligi, jumla tuzish malakasi bilan ham ahamiyatlidir.

Maxsus ta`lim bolalarga muayyan mavzular bo`yicha ertaklar, rasmlar asosida hikoya tuzish topshirig`i ham berilishi mumkin. Bundaytopshiriq ustida ishlash orqali ularda mustakillik, ijodiy faollik rivojlantiriladi. "Bizning oila", "Bahor fasli", "yoz - ugar soz", "qaldirg`ochlar uchib keldi", "qo`g`irchoq teatrida", "qish", "kor", "qorboboning sovg`asi", "qushlar bizning do`stimiz", "Mening to`tilarim", "Hayvonot bogida", "Ertaklar mamlakatida", "Sirkda", "qo`g`irchoqlarim - ovunchoqlarim", "Uch ayiq", "quyonlar", "qovoqpolvon" va boshqa mavzularda hikoya tuzishni tavsiya etish bolalarni nihoyatda qiziqtiradi.

Hikoya qilish bolalarning jumlalarni grammatik jihatdan to`g`ri tuzish, tovushlarni, qo`shimchalarni to`g`ri talaffuz etish, yoshiga mos darajada tasviriy vositalardan to`g`ri foydalana olishiga yordam berib boriladi.

Kattalarning mehnat jarayonini kuzatish, tabiatga, ishlab chiqarish korxonalariga, dars, cho'l, dalalarga sayohatlar asosida hikoyalar tuzishni tavsiya etish ham bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishda eng qulay usullar sanaladi.

"Maxsus ta'lim dasturi"ga binoan muayyan mavzular bo'yicha mustaqil jumlar tuzish, ona tiliga xos tovush, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, nutqning ta'sirchanligiga erishish, rasmlar asosida hikoya tuzish, kichik xajmli badiiy asarlarni qayta hikoya qilib berish, manzarali rasmlar asosida hikoyalar tuzish talab etiladi. Lekin, kuzatishlar bu talablarning to'liq bajarilmayotganini ko'rsatadi. Vaxolangki, bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishda badiiy adabiyotning imkoniyatlari kattadir.

Maxsus ta'lim tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilari badiiy adabiyotning eng yorqin namunalari bilan har kuni tanishtirilib boriladi. Hikoyatlar, rivoyatlar, ertaklar, maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar va qo'shiqlar ular nutqining ifodaliligini ta'minlab qo'ya qolmaydi, balki so'z zaxirasini ham boyitadi, adabiy til imkoniyatlaridan bahramand qiladi.

Maxsus ta'lim dasturi"da badiiy adabiyot namunalari bilan tanishish uchun tavsiya etilgan ro'yxatdan mashg'ulotlar o'tkazishda keng foydalaniladi.

Dasturda qo'shimcha adabiyotlar ham tavsiya etilgan bo'lib, bular asosiy adabiyotlar vositasida o'tiladigan mavzularni to'ldirishga va mashg'ulotlarni yanada boyitishga yordam beradi. Bolalarda bog'lanishli nutqni rivojlantirish ularni savodxonlikka o'rgatish bilan davom ettiriladi. Bu jarayon eshitganini anglab olishga ko'nikma hosil qilish, o'z fikrini ifodali, aniq, tushunarli, grammatik jihatdan to'g'ri ifodalay olish bilan bog'liq bo'ladi.

Demak yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishda ularni o'rab olgan tevarak-atrof, mehnat jarayoni, badiiy adabiyot asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek, Ona-Vatan haqidagi tushunchalar, buyuk siymolar, an'anaviy bayramlar, o'zbek xalkining urf-odatlarini, marosimlarini, mashhur sarkardalar haqidagi hikoyalar, rivoyatlar, xalq amaliy san'ati namunalari, transport va aloqa vositalari, kundalik buyumlar ham bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi Bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishda eng muhim vazifalar sifatida ularning lug'atini boyitish va faollashtirish, nutqining grammatik tuzilishini, tovush madaniyatini, dialogik va monologik nutqni shakllantirish, badiiy adabiyot namunalaridan foydalanish hamda savod o'rgatishga tayyorgarlik kabilarni kiritish mumkin. Bolalarning tevarak-atrofni o'rganishda bog'lanishli nutqini rivojlantirishda umumiy masalalar bilan bir qatorda, ikkinchi darajali masalalarni ham ajratib olish va shu asosda uning asosiy yo'nalishlari hamda o'ziga xos xususiyatlarini ishlab chikish ilm-fan oldidagi dolzarb masalalardandir. Shuning uchun ham Maxsus ta'limyoshdagi bolalarning tevarak-atrofni o'rganishda bog'lanishli nutqini rivojlantirish mazmuni va tashkiliy-metodik xususiyatlarini belgilab olish eng muhim vazifalardan hisoblanadi Dastur talablarini to'laqonli bajarish uchun tarbiyachi va o'qituvchilar o'z tarbiyalanuvchilarining barcha xususiyatlarini, ayniqsa, nutqiy rivojlanishini har tomonlama tekshirib, kamchiliklarini aniqlashlari, bularni bartaraf etish yoki bolani tegishli mutaxassislariga, ular esa tegishli muassasalarga yuborishlari talab etiladi. Logopedik tekshirishlar ta'lim-tarbiya usullari va prinsiplari asosida olib boriladi va bunda bola har tomonlama tekshirib ko'riladi. Logopedik tekshirishlar ikki shaklda olib boriladi: induvidual va frontal tekshirishlar. Induvidual tekshirishlar o'quv yilining boshida tarbiyachi yoki o'qituvchining har bir bolani kamida ikki hafta davomida kuzatib borishidan iborat bo'ladi. Frontal tekshirish vaqtida bolalar bog'cha gruppasi yoki sinfda she'r, hikoya aytib beradilar, savollarga javob qaytaradilar yoki rasmga qarab hikoya tuzadilar. Bu vaqtda bolalar nutqining umumiy holati, artikulyasiyasi, nutq sur'ati, tovushlar talaffuzi, ovoz kuchi, sifati kuzatib borilib, ular nutqidagi kamchiliklar aniqlanadi. Shundan so'ng nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar alohida ro'yxatga olinadi, gruppaning nutq kartasi tuziladi.

Nutqida kamchiligi bo`lgan har bir bola uchun individual nutq kartasi to`ldiriladi. Nutq kamchiligiga ega bolani xar tomonlama tekshirish, uning (tug`uruqqacha, tug`uruq vaqtidagi va tug`uruqdan keyingi davri to`g`risidagi, shaxsining rivojlanishi haqidagi zarur ma`lumotlarni bilish zarur.

Maxsus tekshirishning asosiy bosqichida logoped bola haqidagi anamnez ma`lumotlarini aniqlash maqsadida ota-onalar bilan suhbat o`tkazadi. Ota-onalar bilan suhbatda logoped oilada bo`lib utgan alohida ahamiyatga ega hodisalarni va shunga bog`liq holda bolalarning umumiy nutq tarakkiyotining o`ziga xos tomonlarini aniqlaydi.

Ko`p xollarda bolaning tug`uruqqacha, tug`uruq vaqti va tug`uruqdan keyingi davrlardagi rivojlanishining o`ziga xos tomonlari aniqlandi. Bu quyidagi taxminiy tartib asosida olib boriladi:

a) tug`uruqqacha bo`lgan davr.

Ona bilan suhbatda logoped ba`zi nasliy omillarni belgilaydi: ota-onalarning bola tug`ilgunga qadar salomatligining axvoli, ularda asab-ruhiy, teri-tanosil kasalliklari, nutqiy patologiya bo`lganmi, ota-onadan biri alkogolizm, yuqumli va boshqa kasalliklarga uchraganmi?

Shuningdek, bolaning tug`uruqqacha bo`lgan rivojlanishiga oid quyidagi asosiy jihatlar aniqlanadi?

- onaning bola tug`ilayotgan vaqtdagi yoshi;

- onaning homiladorlikning birinchi va ikkinchi yarmida boshdan kechirgan kasalliklari (Qizilcha, gripp, toksoplazmoz, kandli diabet, jigar, buyrak kasalliklari, angina, anemiya);

- homiladorlikning birinchi va ikkinchi yarmida shikastlanishlar, qorin yuzasida lat eyishlar, yurak-tomir kasalliklari, toksikozlar, bolaning tushish xavfi bo`lganmi?;

- homiladorlik davrida dorilar bilan davolanganmi yoki yo`qmi?;

- homioadorlik davrida rentgenologik tekshiruvdan o`tganmi yoki qandaydir radioaktiv nurlanish bo`lganmi va boshqalar.

Homilddorlik davridagi noqulay omillarni aniqlash logopedga bu omillarni bolaning keyingi nutqiy taraqqiyotiga bevosita ta'sirini aniqlashda yordam beradi.

b) tug'uruq davri.

Har bir logoped ona bilan suhbatda tug'uruq o'tishining tavsifi va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi: tug'uruqning boshlanishi vaqti - o'z vaqtida, homiladorlikning 8 - oyida, 7 - oyida suvning barvaqt ketishi bo'lganmi, tug'uruqning uzoq davom etishi, qisqichlarning qo'llanishi, vakuum-ekstraktorning qo'llanishi, tug'uruq faoliyatining muvofiq ta'minlovchi dorilar qo'llash, homilani qo'l bilan yoki kessar operatsiyani qo'llab ajratib olish.

Bu suhbatda bolaning tug'ilgan paytidagi holati aniqlanishi zarur: darrov yig'laganmi yoki yo'qmi, ko'k, oq asfiksiya, og'irligi (1500 kg dan ko'p yoki kam), bo'yi, turli shikastlar, sinishlar, qon quyilishi, tug'uruq shishi, boshqa jaroxatlanishlar bo'lganmi?;

v) tug'uruqdan keyingi davr.

Bolaning tug'ilgandan keyingi davrdagi somatik rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarni logoped ona bilan olib boriladigan suhbat jarayonida aniqlaydi:

- bolani onaga tug'ilgandan keyin necha soat o'tgach olib kelingan, bola ko'krakni qanday olgan va emgan (faol, faol emas, tezda charchab uxlashi);

- bola uyg'oq vaqtida o'zini qanday tutar edi: tinch yoki notinch, baqirok, yig'loq va boshqalar;

- hayotining birinchi yilida - 3 yoshgacha; pnevmoniya: ko'k yo'tal, dispepsiya, dizentriya kasalliklari bilan og'rganmi?

Shuningdek, bolada qandaydir tug'ma kasalliklar bor yoki yo'qligi aniqlanadi - yurak porogi, maymoqlik va bosh jaroxatlanishi bo'lganmi?

Bolaning ichki nutqni tekshirishda uning tashqi tomon bilan o'zaro bog'liqligini e'tiborga olish kerakligini ta'kidlaydi. A.R.Luriya shu bilan tushuntiriladiki, nutqni eshitishning buzilishi nutq artikulyasiyalari va tashqi nutqning ikkilamchi buzilishiga olib keladi. Artikulyator jarayonlar va ichki nutqning buzilishi nutq tovushlarini idrok qilish va nutq mazmunini tushunish kabi jarayonlarga ta'sir qiladi.

Bundan ilgari ichki nutqning murakkabligi haqida L.S.Vigotskiy ham yozgan edi. Uning fikricha, nutqni tushunish - tovush signali bo'yicha reaksiyani bajarishdan ko'ra ko'prok va boshqacharoq narsadir.

Boalning fonematik eshitishni tekshirish.

Fonematik eshitish bolada bevosita nutqiy aloqa asosida shakllanadi.

Maxsus ta'limyoshdagi bolalar bir-biridan bir tovush bilan farq qiladigan so'zlarni ajrata olmaydilar, shuning uchun bolalarga bir tovush bilan farq qiladigan so'zlarni beramiz:

gul - ko'l

soch - qoch

ko'z - tuz

oz - och

sim - shim

baxor - naxor

va shu so'zlarga mos rasmlarni topish va ko'rsatish ko'nikmasi aniqlanadi.

So'zlarning tushunishni tekshirish

Tekshirish shundan boshlanadiki, bolaga narsalarning nomi aytiladi va ularni ko'rsatib berish so'raladi. Masalan, tana qismlari - ko'z, peshona, yuz, burun, soch, daxan, qo'l, oyoq va boshqalar.

Keyin bolaga uy jihozlarini: stol, stul, shkaf, qandil, ko'zgu; o'yinchoqlardan - qo'g'irchoq, mashina, koptoklarni ko'rsatish taklif qilinadi.

So'zlarni tushunishni tekshirishning keyingi bosqichi rasmda tasvirlangan narsalarni tanish ko'nikmasini aniqlashdan iborat bo'ladi. Bunda bolaga turli mavzuli guruxlarga kiruvchi va bir-biridan shakli, rangi, hajmi va son jihatidan farq kiluvchi narsalar tasvirlangan rasmlar ko'rsatiladi. Bu rasmlarda uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar, o'yinchoqlar, sabzavotlar, mevalar, idish-tovoqlar, transport, shuningdek yil fasllari tasvirlangan bo'ladi.

Bu didaktik material bolalar bog'chasining dastur talablariga muvofiq keladi va ularning yoshiga qarab ajratiladi.

Sodda gaplarni tushunishni tekshirish

Bolaga vaziyatli rasmlar ko'rsatiladi va bir qator quyidagi ko'rinishli sodda gaplar aytiladi: «Qiz o'tiribdi», «Qizda qizil koptok bor», «Bola yuguryapti», «Bolada mashina bor», «Kuchuk yuguryapti» va hokazo.

Shundan so`ng bola aytilayotgan hodisa tasvirlangan rasmni ko`rsatishi lozim. Bundan tashqari quyidagilarni ko`rsatish so`raladi: olmaxonning momik dumi, Qiz qaeda sakrayapti, yuguryapti, yozyapti, sirpanchiq uchyapti va hokazolar.

Keyin bitta gapda kelgan 1,2,3 ta izchil xususiyatlarni bajarishni o`z ichiga oluvchi so`z shaklidagi buyruqlarni bajarish usulidan foydalaniladi. Masalan: «Tur, stol yoniga bor, o`yinchoqlarni ol va polga kuy. Koptokni ol, polga ur va menga ber».

So`ng bolalarning grammatik qurilishlarni tushunishlari aniqlanadi.

1. Birlik va ko`plikdagi otlarni tushunish. Bolaga narsalarga oid rasmlar ko`rsatiladi, uni tanishi va ko`rsatish ko`nikmasi aniqlanadi: mashina qaeda, mashinalar qaeda, qo`g`irchoq qaeda, qo`g`irchoqlar qaeda, olma qaeda, olmalar qaeda va boshqalar.

2. Kichraytirish - erkalash qo`shimchasiga ega bo`lgan so`zlarni tushunish.

Bolaga narsalarga oid rasmlar beriladi va quyidagilarni ko`rsatish ko`nikmasi aniqlanadi: stol qaeda, o`yinchoqli stolcha qaeda, qoshiq qaeda, qoshiqcha qaeda, quyon qaeda, quyoncha qaeda va hokazolar.

3. Bog`lanishli nutq mazmunini tushunish. Bu bo`limda she`riy va darak gapli matnlar mazmunini tushunish tekshiriladi. Buning uchun bolalarga she`riy matn taklif qilinadi.

Maxsus ta`limyoshdagi bolalarning ichki nutqi to`liq rivojlanmagan chuqur tekshirish ruhiy-logopedik tekshirishning umumiy tartibida bolalarning sust lug`atini va, shuningdek, ular ruhiy faoliyatining ba`zi tomonlari holatini aniqlashga yordam beradi, chunki mantikiy idrok insonning murakkab ixtisosiy perspektiv fikri-mnemik faoliyati bo`lib hisoblanadi.

Bolaning ichki nutq kishilar bilan aloqa bog`lanishiga va faoliyatiga ta`sir qiladi, nutqiy va nutqiy bo`lmagan harakatlarni rejalashtirishning quroli bo`lib maydonga chiqadi.

Bolani bolalar nutq bog`chasiga qabul qilingach, logoped tomonidan bir oy davomida tekshirish olib boriladi; keyinchalik tekshirish natijalari tuzatish orqali logopedik ta`sir qilish jarayonida yanada aniqlashtiriladi.

Bolaning muloqotga kirishini tekshirish

Nutqi to'liq rivojlanmagan Maxsus ta'limiyoshdagi bolalar bilan birinchi uchrashuvda logoped bolaning muloqotga qanday kirishishini aniqlaydi: (oson, qiyin yoki xayiqib, qo'rqib, negativizm).

Bolaning o'z tengdoshlari bilan qanday Nutqiy aloqaga kirishi tekshiriladi: boshqalar bilan oson nutqiy aloqa o'rnatiladi, tez-tez yoki kamdan-kam urishadi, nutqiy aloqaga kirishishida tashabbuskor yoki sust Nutqiy aloqaga kirishishi turg'un.

Nutqdan tashqari bo'lgan motorikani tekshirish

Logoped bolaga so'z qoidalarini va taqlid bo'yicha quyidagi vazifalarni bajarishni taklif qiladi:

- vazifa bo'yicha ikkala oyoqda yoki bir oyoqda yugurish, sakrash;
- yurish, yugurish, sakrashda ogoxlantirish bo'yicha to'xtash;
- bir oyoqda, so'ng ikkinchi oyoqda sanoq ostida turish;
- logopedga koptokni otish va uni ilib olish;
- polda yotgan «xalqa» ichiga ikkala oyoq uchida sakrab kirish va undan sakrab chiqish;
- bayroqchalarni ushlagan holda qo'lni quyidagi buyruqlarga amal qilib harakatlantirish: oldinga, orqaga, yuqoriga, pastga;
- cho'kkalab o'tirgan holda polda koptokni u ko'ldan bu ko'lga yumalatish, so'ngra koptokni ko'tarib, o'rindan turish;
- yugurish vaqtida koptokni otish va ilib olish;
- lentani tugun qilib, so'ng «bantik» qilib bog'lash va boshqalar.

Bola motorikasini tekshirish natijasida logoped quyidagi ma'lumotlarni oladi: oyoq, qo'llar muvofiqligi (to'g'ri, noto'g'ri, umuman yo'q); tana muvozanatini sezish, bolaning o'z gavdasini to'tishi, harakatlarni bajarish darajasi (to'liq, noto'liq); bir harakatdan ikkinchi harakatga o'tishi (o'z vaqtida, sekinlashgan, yo'q harakatlarni bajarish mustaqilligi (tuli yoki logoped yordamida); chapaqaylik, yuz harakatlari me'yorda, samimiy va yuz naylarining giperkineziyasi, sinkeziyasi,

ya'ni asosiy harakatlar bilan birga bajariladigan qo'shimcha harakatlar - bir oz yaqqol ifodalangan.

Bolaning motor faolitini tekshirish natijalarini quyidagi parametrlar bo'yicha umumlashtiramiz.

Bolalar nutqining grammatik tomonini o'rganish

Buning uchun bolalarga quyidagi vazifalarni bajarish taklif etiladi:

- syujetli rasmlar asosida gap tuzish;
- narsalarga oid rasmlardan foydalangan holda birlikdagi otlardan ko'plikdagi otlarni hosil qilish (koptok-koptoklar, kalam-kalamlar, kitob-kitoblar va hokazo);
- otlardan kichraytirish - erkalash shakllarini hosil qilish. Masalan: uy-uycha, stol-stolcha;
- otlardan sifat yasash.

Bunda asosiy diqqat bolalarning kay tarzda gap tuzishiga qaratiladi. Bolaga rasmlar yoki davomli rasmlar asosida hikoya qilish, oddiy va murakkab mazmunli matnlarni so'zlab berish taklif etiladi. Bunda so'zlarni bog'lab, matn mazmunini kay darajada so'zlab berishi va undagi kamchiliklar hisobga olib boriladi. Bolaning nutq faolligi darajasi, monologik suhbatga oid nutqdan foydalanish imkoniyatlari belgilanadi. Bundan tashqari, bolaning nutqiy muomalada tashabbuskorligi, she'r, ashula bilishi kabilar ham hisobga olib boriladi.

Bolaning faqat nutqini emas, balki uning ruhiy xususiyatlarini, shaxsining e'tibor talab tomonlari, aqliy holatini ham o'rganib boriladi. Logoped tekshirish jarayonida bolani faqat kuzatib, u bajargan vazifalarni baxolabgina kolmay, balki kerak bo'lganda bolaga yordam berishi lozim. Tekshirish jarayonida bola faoliyati, uning Qiziqishi, muvaffakiyat va muvaffakiyatsizlikka munosabati, qiyinchilikni qanday qabul qilishi va uni bartaraf etish usullari, yo'l quyilgan xatolarni to'g'rilash kobiliyatini hisobga olish lozim.

Bolani charchatib kuymaslik, shuningdek, bola harakatining faollik darajasini pasaytirmaslik uchun tekshirish vaqtida ish turlarini uzgartirib turiladi.

Ish jarayonida bolaga va uning ota-onasiga bo'lgan munosabat, xushmuomalalik bilan tekshirish ruhiy-terapevtiv ta'sir etish asosida bo'lishi kerak. Tekshirish usullari bir xillikka ega bo'lmay, balki hamma vaqt xususiy yo'nalishdadir. To'g'ri tashkil etilgan tekshirish ishlari tabaqalashtirib aniqlash masalalarini hal etishga imkon beradi va shu qatorda tuzatishga qaratilgan ish uslublarini to'g'ri tanlashda katta ahamiyatga egadir.

Bolalarning mustaqil nutqini tekshirish metodikasi

Bolalarning bog'langan Nutqini tekshirish uchun ularga quyidagi vazifalarni bajarish taklif etiladi:

- predmetli rasmlardan, o'yinchoqlardan, narsalardan foydalangan holda hikoya tuzish. Masalan, «Bu qo'g'irchoq. Qo'g'irchoq juda chiroylik. Uning sochiga katta qizil bant boylangan. Qo'g'irchoq atlas kuylak kiygan. Uning oyogida tapochka bor».

- seriya rasmlardan foydalangan holda hikoya tuzish.

Logoped 3-4 talik seriyali rasmlarni bolaga tavsiya etadi va shu rasmlarga qarab ketma-ketligini aniqlab hikoya tuzishni taklif etadi.

Berilgan mavzu bo'yicha hikoya tuzish.

Logoped bolaga murojaat qiladi:

«O'ylab ko'r-chi, sen kecha uyda nima kilding?», yoki «Qanday multfilmlarni bilasan?», «Sen mehmonga borishni yaxshi ko'rasanmi?», «Kimnikiga mehmonga borgansan?».

Baxolash:

- hikoya to'g'ri tuzilgan. Hikoyani mazmunini yaxshi yoritib bera oldi. Hikoya 5-6 gapdan to'zilgan;

- hikoya tuza oldi. Lekin mazmunini oxirigacha echib bera olmadi. Hikoya 3-4 gapdan to'zilgan;

- hikoyada ko'p xatolar. Mazmunini yoritib bera olmadi. Hikoya 1-2 gapdan to'zilgan;

- mustaqil Nutqi yo'q.

Bolani nutqini logopedik tekshirish davomida olingan ma'lumotlar Nutq xaritasiga yozilib boradi (nutq xaritasi ilovada berilgan).

Bola nutqini tekshirish uchun materiallar

Narsa modeli, mulyaj, tarqatma materiallar (rasmlar, konstruktorlar), zondlar, shtagel, oyna (devor va stol oynasi).

Didaktik materiallar: o`yinchoqlar to`plami, stol ustida o`ynaladigan o`yinchoqlar (loto, domino).

Albomlar yoki rasmlar to`plami, narsalarga oid iborali, syujetli, davomli, qirkma rasmlar.

Turli kattalikdagi va turli xil sanoq materiallari, mozayka, optik-fazoviy tasavvurlarini aniqlash uchun turli rang va shakldagi narsalar to`plami. Turli o`lchamdagi narsalar yoki ularning rasmlari.

Ovozli o`yinchoqlar to`plami: do`mbira, nay, pianino, ovoz chiqaradigan hayvon - o`yinchoqlar. Rasmlar to`plami (o`yinchoqlar): uy jihozlari, kiyim, idish-tovoqlar, transportlar, uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar, sabzavotlar, mevalar.

Fonematik idrokni tekshirish uchun maxsus qo`llanmalar: juft narsalarga oid rasmlar, bo`g`inlar, so`zlar.

Bolalar nutqini har tomonlama tekshirish natijasida biz bolalar Bilan ishlash prosessni to`g`ri tashkillashtiramiz. Ular nutqidagi kamchiliklarni to`g`ri va aniq tekshirish esa, o`z vaqtidabolalardagi nutq kamchiliklarini bartaraf etishimizga yordam beradi.

II-BOB BOLALARDA UCHRAYDIGAN NUTQ NUQSONLARINI BARTARAF ETISHDA QULAY SAMARALI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

2.1. Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda didaktik o`yinlar va ulardan foydalanish usullari

Insonlar bir birlari bilan muomilaga kirishar ekan, ularning asosiy ko`zlagan maqsadlaridan biri o`zaro bir biriga ta'sir ko`zsatis, ya'ni fikr-g'oyalariga yaxshi ta'surot qoldirishdir. Ammo ko`pgina nuqsonli bolalarning fikr doirasi kuchsizroq bo`lib, ega bo`lgan fikrlarini ham nutqida aniq bayon ettirishga qiynalishadi. Ma'lumki nuqsonli bolalar bilan muloqotga kirishish uchun, pedagogga pedagogik mahorat juda kuchli bo`lmog'i lozim. Chunki ko`pgina nuqsonli bolalar o`zgalar bilan muloqotga kirishishni istashmaydi, istahsa ham qiynalishadi. Maktab yoshidagi boalalarda uchraydigan nutq kamchiliklari bartaraf etish yuzasidan xilma – xil yo`nalishda tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, O`zbekistonda L. R. Mo`minova, E. A. Boboeva tomonlaridan tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Biz o`z tadqiqotimizda Ushbu muammolar echimini echishga harakat qildik. Biz bolalar nutq faoliyatiga o`yinlarning qay darajada ta'sir etishni turli xil o`yinlar orqali sinab ko`rishga harakat qildik. Nutq buzilishlari bola shaxsining shakllanishiga, bilish faoliyatining rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi.

Shuning uchun logoped birinchi bo`lib nuqsonli bolalarga psixologik ta'sir bu-turli vositalar yordamida bolalarning fikrlari, hissiyotlari va xatti harakatlariga ta'sir ko`rsata olishi darkordir.

Manologik nutqda, diologik nutqda ham odam o`zidagi barcha so`zlar zaxirasidan foydalanilib, eng ta'sirchan so`zlarni topib, sherigiga ta'sir ko`rsatishni xohlaydi. Hutqida nuqsoni bor bola esa ko`pgina hollarda shu nuqsonini yashirishi natijasida muloqotda kirishishni istamaydi, kirishsa ham tor doiradagi insonlar bilan muloqotga kirishadi.

Shu sabab ularning soʻzlar zaxirasi kam, davragirlik xislatlari sust boʻladi. Ertaliklarga ham oʻzlariga berilgan sherni qiynalib aytishadi.

Bolalar baʼzi hollarda nutqning paralingivistik taʼsirning bazi bir omillari nutqni susaytiruvchi, past tovushida ifodalash, toʻxtashlar, duduqlanish, yutal, til bilan amalgam oshiriladigan harakatlar, nidolardan foydalanadi.

Muloqot jarayonidagi harakterli narsa shundaki, suhbatdoshlar bir birlariga taʼsir koʻrsatmoqchi boʻlishganda, dastavval nima deyish, qanday soʻzlar vositasida taʼsir etishini oʻylar ekan. Muloqotning qanday kechishi va kimning koʻproq taʼsirga ega boʻlishi sheriklarning rollariga ham bogʻliq. Taʼsirning tashabbuskori- bu shunday sherikki, unda ataylab taʼsir koʻrsatish maqsadi boʻladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqoridagi taʼkidlangan vositalardan foydalanadi.

Shunday ekan, suhbat jarayonida bola oʻzini tashabbuskor etib his qilishi, yaʼni bola suhbatda oʻzini asosiy rolda ekanligini sezishi kerak, buning uchun pedagog diologni shu maqsadda tuzishi lozim. Eng avvalo bola bilan ishonchli munosabat oʻrnatishi kerak. Suhbat jarayonida bola uni yaxshi koʻrishlarini va u toʻgʻrisida gʻamxoʻrlik qilishlarini his eta olishi juda muhimdir.

Pedagogning muloqot jarayonida oʻyin, nutqiy mashqlar, barmoqlar teatri, qisqa saxna koʻrinishlarini oʻynash, rasmiy topishmoqlar, taʼlimiy oʻyinlar, barmoqlar gimnastikasi va qofiyali soʻzlar oʻyinidan foydalanishi muloqotning ijobiy oʻtishiga yordam beradi.

Shularni inobatga olgan holda sheʼrni yod olish tezligini oshirish uchun uni turli harakatlar bilan birgalikda olib borish yaxshi natija beradi.

Oʻyin inson faoliyatining koʻrinishlaridan biridir. Tadqiqotchilar oʻyinning qadrini bola xulqini shakllantirishdagi kishining muomala chogʻidagi xatti – harakatini aniqlab olishdagi ahamiyatini taʼkidladilar. Oʻyin bola hayotining uzviy qismidir. Bolalarning oʻyin dunyosi boy va xilma – xildir. Nutq kamchiligiga ega boʻlgan bolalar bilan olib boriladigan mashgʻulotlarda oʻyin usullari hamda elementlaridan foydalanish samarali natija beradi va shu sababdan keng qoʻllaniladi.

Shu sababli o`yin faoliyatidan keng foydalanish orqali bolaga har tomonlama ta`sir etish mumkin. O`yin bolaning aqliy rivojlanish vositasidir o`yin vaqtida xilma – xil aqliy jarayonlar faollashadi, o`yinning vazifa va shartlari esa diqqatni to`plash, analizatorlarni farqlash, taqqoslash, umumlashtirish jarayonlarining faollashuvini talab etadi. Bir xildagi harakat va so`zlarning ko`p takrorlanishi bola ongida narsa va hodisalar haqidagi mustahkam bog`lanishlar hosil qiladi, muayyan fikr, xatti – harakatlarning tarkib topishiga yordam beradi.

Bolalarga o`yin har tomonlama kamol topishida kata ahamiyatga ega bo`lib, o`yin vaqtida bolalarning sezgi, idrok, tafakkur, hayol, xotira, diqqat, iroda, xissiyot va boshqa ruhiy jarayonlari ishtirok etadi. O`yinlar bolalarning aqliy faoliyatini o`stirishga, ularning fikriy tashabbuskorligini oshirishga xizmat qiladi. Bolalarning xis tuyg`ularini shakllantirishga, ayniqsa, ularning sezgi a`zolari (ko`rish, sezish, tinglash va .b) faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Didaktik o`yinlar xilma – xil materialllar asosida tashkil qilinadi. Masalan: qo`g`irchoqlar, o`yinchoqlar, rang – barang rasm va kartochkalar, turli geometrik shakllar, tabiiy materiallar shular jumlasidandir.

Maxsus ta`limyoshdagi bolalar bilan olib boriladigan mashg`ulotlarda didaktik o`yinlarning ag`amiyati katta, bu o`yinlarni keng qo`llash bola tafakkuri, idroki, zehni, xotirasi, irodasi, bilim olishga bo`lgan qiziqishi va ehtiyojining rivojlanishiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Bolada atrof olamni bilishga bo`lgan qiziqish ortadi, ziyorakligi, ixtiyoriy diqqati, topqirligi tashabbuskorligi mustahkamlanadi. Bolalarda o`yin orqali, kattalarning xatti – harakati orqali voqe`likka munosabat shakllanadi, dunyoqarash, aqliy, axloqiy va jismoniy tomondan tarbiyalanadilar. O`yinlar o`z mazmuniga ko`ra bir necha turlarga bo`linadi: Didaktik o`yinlar; dramalashtirilgan o`yinlar; syujetli – roli; harakatli o`yinlar.

Didaktik o`yinlarda bolalarning aqliy jixatdan o`stirish uchun kerakli bo`lgan muhim sifatlar hosil bo`ladi. O`yinlar bolalarning yoshiga va ruhiy rivojlanishiga qarab tanlanadi. Ta`limiy o`yinlar orqali bolada mustaqillik, faollik, ijodkorlik masalaga ongli yondoshish malakasi o`stirib boriladi. O`yin ko`rgazmalilik, oddiydan murakkabga o`tish usullari orqali olib boriladi.

Tarbiyachi va logopedlar ta'limiy o'yinlarni o'tkazish davomida bola harakatini faollashtiradi, mustaqil harakat qilish qobiliyatini shakllantiradi, o'yindan to'g'ri foydalanilsa bolaning tafakkuri, nutqi, xotirasi ya'ni, aqliy tarbiyasiga asos solinadi. Ta'limiy o'yinlar orqali bolalar eshitish, ko'rish, sezish a'zolari orqali turli narsalar va ularni yasashda ishlatiladigan materiallarning xossalari, ularni bir - biriga taqqoslashni, guruhlariga ajratishni o'rganadilar. Ta'limiy o'yinlar guruhlarda quyidagi xilda o'tkaziladi.

Mehmonga keldi", "Ajoyib xaltacha", "Shaklini top", " O'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar-"Ayiqlarga nima kerak?", "Jajji oyoqchalarimiz", "Zumrad uchun ko'ylaklar" .

Stol ustiga qo'yib o'ynaladigan o'yinlar- "Nima qaerda yuradi?", "Men aytgan narsani ko'rsat", "Kimning qo'lida nima bor?".

Og'zaki usuldagi ta'limiy o'yinlar- "Qo'g'irchoq Lolaxonni cho'miltiramiz", "Qo'g'irchoq Lolaxon Rangini top" kabi o'yinlar kiradi.

Eshitish va ko'rish a'zolarini faollashtirish uchun "Xilini top", "Qaysi daraxtning mevasi?", "Nimaning pati", "Mevasini top", "Onasini top", "Mevalar va barglar", "Domino", "Yovvoyi va uy xayvonlari", "Ishlash uchun nima zarur", "Bu uychada kanday xayvon yashaydi", "Bu kim yoki nima?" singari O'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu o'yinlar orqali bolalarda meva va sabzavotlar, hayvonlar va parrandalar, yil fasllari, kiyim - kechak va boshkalar, kabi tasavvurlar boyitilib, kengaytirilib, ko'rish va eshitish, esda saqlab qolish xususiyatlari rivojlantirilib boriladi. Katta guruhlarda o'ynaladigan "Ayting biz topamiz", "Topgan topag'on", "Oshqovoq pishdi", "Loy o'yini", "Bog'bonlar" o'yinlari orqali bolalarda mehnatga muhabbat ruhi tarbiyalanib boradi.

Mazkur o'yin jarayonida nutq muhim ahamiyat kasb etadi: u orqali bolalar fikr, his tuyg'u va kechinmalar bilan almashinishadi, o'zaro do'stona munosabatlar o'rnatishadi. Nutq bolalarga tevarak – atrofdagi hayot voqealari va faktlariga bir xil munosabatda bo'lishga yordam beradi. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar Bilan olib boriladigan didaktik o'yinlar so'z va gaplarni tahlil qilishga, so'zlarda tovush va harflarning o'rnini aniqlash, jummalarni to'g'ri tuzishga o'rgatadi.

Quyida bolalar bilan tarbiyaviy mashg'ulotlarda, oila sharoitida, o`yin faoliyatida olib boriladigan didaktik o`yinlardan misollar keltiramiz:

“Jonli so`zlar” o`yini.

O`yin guruh bilan o`ynashga mo`ljallangan bo`lib, tarbiyachi dastlab doskaga uchta bolani chiqaradi va o`yin qoidasini tushuntiradi:

Hozir siz bilan “Jonli so`zlar” o`yinini o`ynaymiz. Bu bolalar so`z bo`ladilar. Demak, uch so`zdan iborat bo`lgan gap tuzamiz. Bolalar gap tuzadilar. Masalan, Lola - “bog`da”, Jasur -“ pishdi”, Aziz - “mevalar” degan so`zni ifodalaydilar. Keyin tarbiyachi bolalarni chapdan o`ngga qarata ketma - ket joylashtirib, gap “yozishlarini” taklif qiladi. Vazifa bajarib bo`lingach, jonli so`zlar o`z so`zlarini aytadilar, bolalar esa aytilgan gapni eshitadilar.

O`yin gap va “Jonli so`zlar”ni almashtirish orqali davom etadi.

O`yinning 2 – turi

O`yinning ikkinchi turi ham birinchi turga o`xshab, bolalar bilan bigalikda avval gap tuziladi, so`ngra bolalarga gapning so`zlarini bo`lib beriladi. “Jonli so`zlar” o`z so`zlarini bilib olganlaridan so`ng tarbiyachi

“jonli so`zlarga” murojaat qiladi:

- Hozir siz o`z joylaringizni aniqlab, ketma – ket turgan holda aytilgan gapni “yozasiz”, qolgan bolalar sizlarni kuzatib turadilar, - deydi.

Bolalar tezda ketma – ket turib aytilgan gapni yozishlari kerak, so`ngra har bir bola o`z so`zini ovoz bilan aytib, gap hosil qiladilar.

O`yin shu tarzda bolalarni va gapni almashtirish orqali davom ettiriladi. O`yinda o`z qatorini adashtirmay to`g`ri topib turgan holda so`zni aniq talaffuz qilgan bola g`olib sanaladi va rag`batlantiriladi.

“Sehrli qalamchalar” o`yini

O`yin uchun bir necha rangli qalamchalar va ular yordamida chizilgan turli narsa va buyumlar rasmi kerak bo`lib, ular doskaning o`rtasiga joylashtiriladi. O`yinni yakka holda yoki guruh bilan o`ynash mumkin.

Tarbiyachi bolalar diqqatini doskaga qo`yilgan jihozga qaratib :

- Bolalar, siz ko`rayotgan mana bu qalamchalar oddiy qalamchalar emas, balki ular “sehrli” qalamchalardir. Ular mana bu rasmni bir zumda chiza oladilar. Keling, hozir ular nimalarning rasmini chizganliklarini aniqlaymiz.

Tarbiyachi birin – ketin ko`rsatadi, bolalar esa ularni nomlaydilar. Tarbiyachi bolalar diqqatini maqsadda ko`zlagan bir tovushlarning (masalan s, b, r va h.k.) o`rnini so`z boshida, o`rtasida, oxirida) aniqlashga qaratadi. Tarbiyachi:

- Bolalar, endi har bir qalamcha qaysi rasmni chizganini aniqlaymiz.

Hozir har biringiz o`zingizga yoqqan rangdagi qalamchani tanlab olasiz. Qalamchangiz qaysi rasmni chizganini ular qoldirgan izdan yurib aniqlaysiz va nomlaysiz. Agar siz rasmda nima aks ettirilganini to`g`ri topsangiz uni aniq, ravon talaffuz qilsangiz rasmni o`zingizga olishingiz mumkin. Shu tartibda bolalar qalamchalar chizgan rasmlarni aniqlaydilar. O`yin doskadagi jihozni almashtirish orqali davom ettirilishi mumkin. O`yinda kim ko`p rasm to`play olsa, o`sha bola g`olib sanaladi.

O`yinning 2 - turi

O`yinning 2 – turi ikki farqlanayotgan tovush ustida o`tkaziladi (b-p, s-sh, r-l, a-o, d-t va h.k). Masalan, q-g . Mazkur o`yinning 1-turi uchun zarur jihozlar qisman o`zgartiriladi. Jumladan, rasmlar ikki farqlanayotgan tovushga mos ravishda tayyorlanib, ularning yoniga kerakli harfni yozish uchun bo`sh katakcha qo`yiladi.

Tarbiyachi bolalarga o`yin shartini tushuntiradi:

- Bolalar, rasmdagi qalamchalardan birini o`zingizga tanlang. Qalamchalarangizning chizgan rasmini aniqlashda ular qoldirgan izlar bizga yordam beradi. Ana shu izlardan yurib qalamchalarangiz rasmini aniqlaysiz va uni nomlaysiz. Bizga kerakli bo`lgan “g” yoki “q” tovushini ajratib, aniqlab, uni bo`sh katakchaga yozasiz. Agar siz shu vazifani to`g`ri bajarsangiz rasmni o`zingizga olasiz.

O`yin rasmlarni almashtirish orqali davom ettirilishi mumkin. O`yinning bu turida ham ko`p rasm yig`ib, topshiriqni to`g`ri bajargan bola g`olib sanaladi.

“Hayvonot bog’i” o`yini

O`yin uchun “Hayvonot bog’i” deb atalgan maxsus jadval zarur bo`lib, jadvalda “qafaslar” to`rt qatorga (1, 2, 3, 4) joylashtiriladi (cho`ntaklar yopishtiriladi).

Bundan tashqari, o`yin uchun hayvonlarning rasmlari aks ettirilgan varaqlar (birinchi qator uchun: ot, it, qo`y, kit; ikkinchi qator uchun: bo`ri, ayiq, yo`lbars, tulki; uchinchi qator uchun: olmaxon, jirafa, kenguru, qo`zichoq; to`rtinchi qatorga: tipratikan, kaltakesak va h.k) ham zarur bo`ladi. O`yin jadvalni doskaga osish va hayvonlarning rasmlari ifodalangan varaqlarni bolalarga tarqatish bilan boshlanadi. Tarbiyachi bolalarga hayvonat bog’iga keltirilgan hayvonlarni nomlab, ularni bo`g`inlarga ajratgan holda ma`lum qatorlardagi qafaslarga joylashtirish kerakligini tushuntiradi. Masalan, “ot” – bo`g`indan, demak uni birinchi qatordagi qafasga, “bo`ri”- ikki bo`g`inli, shuning uchun ikkinchi qatordagi qafasga joylashtiriladi va hakoza.

2.2. Bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini bartaraf etishda og'zaki nutqni o'stirish texnologiyalari

Hayot shunday hamma narsa zamon, davr bilan bog'liq bo'ladi. Xalq og'zaki ijodimi, yozuvchilar tomonidan yaratilgan badiiy asarlarni bari bir zamonga, davrga xizmat qiladi. Xalq poetik asarlarni o'qib, o'z hayot yo'lini to'g'ri, noto'g'ri ekanligini bilib, suyanib, xulosa chiqarib yashaydi, yutuqlardan quvonadi, kamchiliklardan azob chekadi. Bu hol ko'proq yosh avlodda ko'rinadi. O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi namunalari bazi tarixiy yodgorliklar, ilmiy asar va yodnomalardagina saqlanib qolgan. Eng qadimgi folklor asarlari miflar, jangnoma tipidagi afsonalar qaxramonlik va paxlavonlik eposlari, qo'shiq va maqolalardan tashkil topgan.

Ma'lumki, maxsus maktabda nutq o'stirishning asosiy maqsadi bolalarning nutqni egallashga intilishi va qiziqishini uyg'otish, ona tilini o'rgatish, ya'ni "Fikrni ona tilida aniq, ravon, lo'nda ifoda etish" malakalarini shakllantirish, shaxs sifatlarini rivojlantirish va bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat.

Ushbu vazifani bajarish bolalarning obrazli, mantiqiy fikrlashi, bilishiga kizikishi, ukuv faoliyatini kuzatishi, eshitishi va eslab kolishi, kurib eslab kolishini rivojlantiradi.

Shuning uchun xam o'qituvchi nutq o'stirish metodlarini puxta bilishi, mashg'ulotlar jarayonida qo'llashi, eng kulay usullarni tanlashi va takomillashtirishi lozim.

Pedagogik va metodik adabiyotlarda nutq o'stirish metodlari quyidagicha tasnif kilinadi;

1. Suz yoki ogzaki metodlar.
2. Kursatmalilik metodlari.
3. Amaliy metodlar.
4. Uyin metodi.

2.Ogzaki metodda bolalarga beriladigan bilim, malaka va kunikma tarbiyachining suzi, tushuntirishi, xikoya kilishi, tasvirlashi, suxbatlashishi, ukib berishi, yoddan aytishi orkali shakllantiriladi.

Jumladan, tarbiyachi ogzaki metodlardan foydalanganda anik, lunda fikrlashi, gap va suzlarni anik oxang va tuxtamlarga rioya qilgan xolda bayon qilishi, savollarni anik, kiska tuzishi va unga bolalarning oson javob topishini uylashi lozim.

Ogzaki metodlar ukib berish, xikoya kilib berish, yoddan aytish, suxbat, savol-javob metodi kabilardir. Ukib berish, xikoya kilib berish, yoddan aytish metodlari badiiy adabiyot, bolalar folklori materiallarini urgatish, she'rni ed oldirishda kullaniladi.

Suxbat metodi maxsus maktabda eng kup kullaniladigan, eng kulay metod bulib, berilgan mavzu yuzasidan savol-javob tarzidagi mulokotdir, ya'ni bolalar bilim, malaka, kunikmani tarbiyachi savollariga javob berish orkali egallaydilar. Shuning uchun tarbiyachi savollarni kiska, anik, bolalarga tushunarli bulishi, ularning javob bera olish malakasini nazarda tutgan xolda tuzishi, zarur urinlarda yullovchi savollar berishi, bolalarning xam savollarga anik, lunda javob bera olishiga erishishi lozim.

Suxbat uyinchok, buyum, narsa, rasm, bolalar kurgan-kuzatgan, uzlari ishtirok etgan vokea-xodisalar, tevarak-atrof, tabiat, badiiy asar mazmuni yuzasidan bulishi mumkin.

Suxbat metodi kadimiy metodlardan bulib, XI-XII asrda yashagan buyuk alloma, komusiy olim Burxoniddin Zarnuji ukitishning kusatmali tajriba, amaliy (mashk, takrorlash) nazorat usullari bilan birga, suzlash uslublari, bilimni bayon qilish, xikoya qilish, savol-javob uslubini xam tavsiya etadi.

Buyuk olim va mutafakkir Ibn Sino xam suxbat, tushuntirish metodlarini eng kulay metod deb biladi.

Suxbat metodining afzalligi shundaki, mashgulotda bolalar xam, tarbiyachi xam faollik kursatadi, uzaro xamkorlik bir-birini kullab-kuvvatlash, uzaro fikrlash, bilimni nazorat qilish, uni tuzatish imkoniyatiga ega buladi, bolalar ta'limda sub'ekt va ob'ekt sifatida ishtirok etadilar.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirishda ta'limning suz metodlaridan maktabgacha ta'limda foydalanish imkoniyatlari yanada kengaydi.

Ukib berish, xikoya kilib berish metodlaridan barcha guruxlarda foydalanilmokda, ertak, xikoya, she'r, erkalama, kushik, lapar, aytishuv, tez aytish, topishmok kabi bolalar adabiyoti va xalk ogzaki ijodi namunalari yukorida aytilgan metodlarda urgatilib, bolalarning nutqi, nutq madaniyati, badiiy nutq malakalari shakllantirilmokda.

Ogzaki metodlardan foydalanish bolalarni maktabga tayyorlashda muxim axamiyat kasb etadi. Shuni xam ta'kidlash lozimki, ogzaki metodlar bolalarni kattalar bilan nutqiy mulokotga kirisha olishi, ularning savollarga javob berishi, xozirjavoblik, nutqni ifodali, tartibli bayon etish, nutq meyorlariga rioya kilishni urgatish bilan birga ularni maktabga tayyorlash, xotirasini shakllantirishga xizmat kiladi, ya'ni eshitib eslab kolish xotirasini rivojlantiradi.

Kursatmalilik metodi. Bu metodka ukuv material kugazma, texnik vositalar, turli didaktik materiallar asosida urgatiladi. Kursatmalilik metodi maktabgacha ta'limda eng kup kullaniadigan metodlardan biridir. Kursatmalilik metodida bolalar narsa, buyum, vokea xodisani kurish, kuzatish, rasm-illyustrtsiyalarni kurish, sayr ekskursiyadagi kuzatishlari asosida muloxaza kiladi, fikrlaydi va nutqni bayon kiladi. Bu metodka gurux xonasidagi buyumlar, tabiat burchagidagi usimlik, gul va xayvonlar, kushlarni kuzatishi, kattalar mexnati, tevarak - atrofdagi vokea-xodisalar kugazmalilik vositasi bulib xizmat kiladi, bolalar bilim, malaka va kunikmalarni kurish orkali idrok kiladilar va eslab koladilar, ularda kurib eslab kolish xotirasi rivojlanadi.

Kurgazmali vositalar bolalarning tasavvuri, fikrlashi va nutqining tartibli, izchil bulishini, umumlashtirish, bilimlarni tartibga solish imkoniyatini shakllantiradi, fikrlash faoliyatlarini mustaxkamlaydi.

Shuni xam ta'kidlash lozimki, kursatmalilik metodi ogzaki metodlar bilan birgalikda kullaniadi, ya'ni kurgazma yuzasidan bolalarga savollar berish, kurgazma mazmunini tushuntirish, xikoya tuzish kabi faoliyatlar ogzaki metodka amalga oshiriladi, natijada bolalar bilim va malaka, nutqni xam kurish, xam eshitish, tarbiyachi savollariga javob berish orkali egallab boradi.

Kursatmalilik metodida kuzatish muxim ahamiyatga ega, chunki kuzatish bir necha metodlar bilan bogliq bulib, rasm-illyustratsiyalarni kuzatish, diafilm, telekursatuvlarni kurish, ularni tasvirlash, u xakda mazmunli xikoya tuzish yoki suxbat uyushtirish orkali bolalar nutqini o'stirish mumkin. Bu jarayonda tarbiyachining tushuntirishi, savollar berishi, rasm-illyustratsiyalarni izoxlab berishi, bolalarning kurib tushunish va eslab kolishi bilan birga eshitib eslab kolishini ta'minlaydi. Kursatmalilik metodida kuyidagi-larga diqqat kilish lozim.

1. Rasm-illyustratsiya, narsa, buyum va boshka kurgazmalar-ning bolalar yoshiga mos bulishi, ranglarning anik yorqin bulishiga ahamiyat berish.

2. Kurgazmali vositalarning asosiy mazmunini ifodalovchi jixatlarga bolalar diqqatini jalb etish.

3. Kursatmali vositalarni bolalarning kuzatishlari uchun imkoniyat berish va xar bir yosh gurux uchun bu metodda olib boriladigan ishlarni anik belgilab olish.

Maktabgacha ta'limning kichik guruxidan boshlab kurgazmali metodni kullash orkali bolalar nutqi ustiriladi, bunda kiyoslash, ajratish, tuplash, umumlashtirish va tasvirlashga aloxida ahamiyat beriladi.

Katta va tayyorlov guruxlarda kurgazmali vositalar asosida tasviriy, ijodiy xikoya tuzishga aloxida etibor beriladi, bunda kuyidagicha ish olib boriladi.

Rasm, buyum kurgazmani bolalar kuzatadilar;

tarbiyachi tomonidan kurgazma yuzasidan suxbat uyushtiriladi;

kurgazma asosida tasviriy va ijodiy xikoyalar tuziladi, bolalar xikoyani suzlab beradilar;

xikoya mazmuni, gap kurulishi, bolalarning xikoyani bayon kilish kobilyatlari, nutqni egallashi, nutq odobiga rioya kilishga kura taxlil kilinadi.

Amaliy metod. Amaliy metodning asosiy maksadi bolalar egallagan bilimlarni amalda kullash, nutqiy malakasini oshirishdan iboratdir. Amaliy metodda bilim va malakalar mashk kilish, topshirikni mustakil bajarish orkali, oddiy tajribalar utkazish kabi amaliy faoliyatda egallanadi, amaliy metodda kurgazmalilik metodi, suz metodi birgalikda kullaniladi va nutq o'stirishning barcha vazifalarini bajarishda ishtirok etadi, bolalar mustakil ravishda tapshiriklarni bajaradi, nutq

uchun suz va gapni uzi amaliy izlanish orkali topadi; bolalarning xonani tozalashi, kitoblarni tartibga keltirishi, uyinchoklarni ta'mirlashi, tabiat burchagidagi mexnat faoliyatida amaliy metoddan foydalaniladi,ular uzi bajargan ishlarni suz va gap orkali ifodalaydilar.

Amaliy metodda bolalarning xotirasi, tafakkuri, ishlash kobiliyati shakllanadi, mustakil faoliyat, mustakil fikrlashi usadi, tevarak-atrofdagi xayotga, kattalar mexnatiga kizikishlari, kadriyatlarimizga xurmati ortib boradi, kasb egallashga doir amaliy malakalari shakllanadi.

Uyin metodi. Maktabgacha ta'limda uyin metodining bir necha turi keng kullaniladi, ya'ni didaktik uyin, suz uyini, xarakatli uyin, rolli, mazmunli uyin kabilar nutq o'stirishda muxim axamiyatga egadir. Masalan, "Bu uyda kim yashaydi", "Nima uzgardi", "Kimga nima kerak", "Uyinchoklar dukoni", "Xikoyani kim davom ettiradi" kabi didaktik uyinlar bolalarning suz boyligini oshirish, boglanishli nutqini o'stirish, nutqning tovush madaniyatini shakllantirishga yordam beradi.

Ma'lumki, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maxsus maktab bolalar ta'lim tarbiyasining davlat talabi meyoriga kura katta va tayyorlov guruxda bolalar faoliyatining 80 foizi uyin mashgulotlaridan iborat bulmogi lozim. Bu talabni bajarish uchun maktabgacha ta'limda bolalarning suz boyligini oshirish, nutq tovushlarini anik eshitishi va talaffuz kilishini, ularni suzlardan ajrata bilishini, bolalarning fikrlash kunikmasini, urtoklarini tushunishi, urtoklari va tarbiyachi bilan xamkorlik kilishini shakllantirish uchun nutq o'stirish mashgulotlarida uyin metodidan foydalanish yaxshi natija beradi.

Ayniksa, bolalar xotirasini rivojlantirishga, akliy faoliyatini shakllantirishga doir didaktik va rivojlantiruvchi uyinlarga keng axamiyat berilmokda. Chunki uyin bolaning narsalar olami, odamlar faoliyati va munosabatini anglash negizidir.

Xar bir o'qituvchi nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalar bilish faoliyati, nutqiy rivojlanishini xisobga olgan holda metodlarni tanlash va xillab kullashga, mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga, bolalar nutqiy malaka va kunikmalarini shakllantirishga yordam beruvchi eng kulay metodlarni kullashga axamiyat berishi lozim.

Shuningdek, nutq o'stirish metodlarining xar biri nutq o'stirish maksadi vazifasiga kura bir necha usullarni uz ichiga oldi. Masalan, suxbat metodi kuzatish, kurish kabi usullarni uz ichiga olsa, ukib berish metodi tulik ukib berish, kiskartirib ukish, tanlab ukib berish kabi usullarni uz ichiga oladi.

Nutq o'stirish usullari metod kabi suz-ogzaki usullar, kursatmali va uyin usullarga xam bulinadi. Ogzaki usullarda nutq namunasini berish, tasvirlash, tavsiflash, aytilganlarni takrorlash, kursatma berish, yullanma berish kabi usullar kullanilsa, kursatmalilik metodida rasmni, uyinchokni kursatish va xarakatlantirish, tushuntirish, boshlab berish kabi usullar muximdir.

Nutq o'stirish metodlari yukoridagi kabi bolalarning, yosh xususiyati, mashg'ulot turiga kura tanlanadi va kullaniladi.

Respublikamizdagi maktabgacha ta'lim muassasalarida "Uchinchi mingyillikning bolasi" tayanch dasturini amalga oshirish, bolalarni intellektual jixatdan maktabga tayyorlashda nutq o'stirish mashg'ulotlarini samarali tashkil etish uchun eng kulay metodlarni kullash orkali bolalar nutqini o'stirish, mashg'ulotda uzaro bir-birini tushunish, kullab kuvvatlash, xamkorlik asosida bilimlarni egallashga e'tibor berish zamon talabidir. Kishi dunyoga mukammal inson bo`lib kelmaydi. U tug`iliboq ertak yoki dostonlardagi qahramonlardek aqlli, dono, bilimdon bo`lib qolmaydi. Inson tevarak atrofdagi narsa va hodisalarga, odamlar orasida, tabiatning go`zal qo`ynida, hayvonot dunyosi, parranda-yu hashoratlar, turli-tuman voqea-hodisalar qurshovida, ular bilan muloqotda bo`ladi, o`sib ulg`ayadi va kamol topadi. Yaxshilardan ibrat oladi, yomonlardan nafratlanadi. Shuning uchun inson yaxshilik, ezgulik sari intiladi. Bu intilishlarni bola ilk va kichik yoshligidan boshlab o`ziga o`zlashtirishga intiladi.

Maxsus ta'lim yoshdagi bolalar ko'ngil ochishni, ermakni hohlaydilar. Chunki bu narsalar ular xayoti davomida tabiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Maxsus ta'limkichik yoshdagi bolalar hamma narsani o'yin va so'zlar orqali o'zlashtiradilar. Tarbiyachi bolalar bilan muloqot qilganida ularga o'z onalarning har tomonini ya'ni nozik taraflarini ham o'rgatib boradi. Chunki so'z orqali bola hayoti borasida muloqot qiladi, fikrlash doirasi kengayadi va tili ravon, aniq so'zlashga moslashib boradi. Maxsus ta'limkichik yoshdagi bolalar so'z, ibora va gaplarni qiziqib o'rganadilar hamda osongina eslab qoladilar. Bu yoshdagi bolalarning xotirasi endi shakllanib borayotgan paytda bunday mashg'ulotlar ularning xayotiga yo'l ochib beradi. Kichik yoshdagi bolalarga tarbiyachi so'zlarni o'rgatayotganida o'yinlar orqali murojaat qilish ayni muddao hisoblanadi. O'yin orqali bola o'zining lug'at boyligini kengaytirib to'playdi. Lekin kichik yoshdagi hamma bolalar ham o'rganayotgan so'zlarning ma'nosini to'g'ri tushunmaydilar. Ularni tushuntirish ota-onalar bilan tarbiyachining vazifasiga kiradi.

Maxsus ta'lim yoshdagi bolalar uchun sodda va qiziqarli o'yinlar, tez aytishlar, ertaklar aytib berish yoki suratlarga qarab ertak o'ylab topish, she'r va ashulalarni yod olish ham katta samara beradi. Tarbiyachi o'z mashg'ulotlarini shunday o'tish kerakki, bolaning o'z tasavvur olamlarida bu narsalarni xayolan hosil qilishlari kerak. Kichik yoshdagi bolalar uchun chiqarilgan ertak kitoblar turli-tuman rangli va qiziqarli suratlarga boy bo'lishi darkor. Bunday kitoblarni ko'rgan har qanday bolaning adabiyotga qiziqishi ortadi hamda talab ham kuchayadi. Bolalar uchun yaratilgan kitoblarda atrofimizdagi bizni o'rab turgan yashil va jumboqli tabiatni asrab-avaylashga, hayovonot dunyosini bilishga va sevishga, murg'ak qalblarini mehrga to'ldiradi, onglarini rivojlantiradi. Shular asosida bolaning lug'at boyligi ortadi va nutqini o'stiradi.

Qiziqarli ertak va hikoyalar bolaga yaxshi ta'sir qiladi va yaxshi-yomonni farqlashga o'rgatadi. Yod olingan kichik xajmdagi she'r va qo'shiqlar bolaning nutqini ravon, aniq va sodda qilib ifoda etishni shakllantiradi.

Tarbiyai bolalarda tabiatga mehr uyg'otishda daraxtlar qushlar yoki boshqa narsalar haqidagi kichik xajmdagi she'rlarni yod oldirishi va ularning mazmunini tushuntirishlari maqsadga muvofiqdir. Qushlarning insonlarga foyda keltirishi shu kichik she'r orqali ifodalanganini aytish zarur. She'rni yoki qo'shiqni aytishdan oldin ular haqidagi rangli rasmlarni ko'rsatib o'tish va suhbatlashish shart. Shundagina bolaning tasavvuri, hayolot olami kengayib boradi.

Maxsus ta'lim yoshdagi bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirish yoki o'stirishda ertak, afsona, dostonlarning roli katta. Bunday asarlarda so'zlar aniq, sermazmun, to'g'ri, jumlasida sodda va bola xotirasiga qabul qila olishiga mo'ljallangan qilib yoziladi. Tarbiyachi nutq o'stirish mashg'ulotlarida shunday adabiyotlardan foydalanishlari darkor. Hozirgi chop etilayotgan deyarli barcha kitoblar bolaning qanday yoshda ekanligini hisobga olgan holda tuzilgan hamda ertakning mazmunini tushunishga yordam berish bilan birga nutq madaniyatining tarkibi topishida ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Maxsus ta'lim yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish yuzasidan xalq tomonidan yaratilgan maqollar, topishmoqlar, tez aytishlarni tarbiyachi o'z mashg'uloti orqali bolaga yetkazadi. Tarbiyachining o'zi ham qanday mashg'ulot o'tishidan qat'iy nazar aniq, ravon, ifodali, sodda va bola tushunadigan ohangda so'zlashi darkor.

O'yinlar orqali bolaning xotirasida yaxshi ta'ssurot qoldirish mumkin. Bunday mashg'ulotlarni o'tishda tarbiyachining bilim va mahoratiga ham bog'liq. O'yinni ham boshidan oxirigacha tarbiyachi so'zlarini to'g'ri va ravon qilib so'zlaydi. Bola o'zining tilida emas balki kattalarga taqlid qilgan holda muloqot qilishga harakat qiladi. Og'zaki nutqi rivojlangan bolakay o'z fikrini ham to'g'ri ifodalay oladi. Nutqining boy, sermazmun bo'lishidagi asosiy shartlaridan biri aytilgan so'zning to'g'ri talaffuz qilishidir. Agar bolakay so'zlardagi ba'zi xarflarni ayta olmasa bunday bola bilan maxsus mutaxassis (logoped, defektolog) shug'ullanishi zarur. Masalan sh, r, j, yo, ch, z, g', s, q harflarni to'g'ri talaffuz eta olmaslik. Tarbiyai bunday hollarga befarq qaramasligi kerak.

Aksincha tarbiyachi mashg'ulot davomida og'zaki nutqida kamchiligi uchraydigan bolalarning xatosini bartaraf etish va ota-onasi bilan birga yaqindan yondashib ishlashi zarur.

Tarbiyachi mashg'ulotdan tashqari muomala qilganida ham o'z so'zlariga katta e'tibor qaratgan holda gaplashishi kerak. Mashg'ulotlardan tashqari sayr vaqtida, didaktik o'yinlar o'ynayotgan paytda bola bilan yakka tartibda ishlashga to'g'ri keladi. So'zlarni bo'g'inlarga bo'lib yoki tovushning baland-pastligiga, agar parranda yoki hayvonlarning nomlarini aytishga qiynalsa ularning ovozlariga taqlid qilish, takror-takror mashq bajartirishga e'tibor qaratib ish olib boradi va yaxshi samara beradi.

Tarbiyachi ertak yoki hikoya o'qiyotganida asarning badiiyligini ham inobatga olish darkor. Chunki O'zbekiston xalqi ko'p millatli xalq hisoblanadi va turli xalq vakillarining bolalari Maxsus ta'limta'lim muassasalarida (maktab, kollej, lisey va oliygohlarda) tarbiyalanadilar, bilim oladilar. Boshqa millat bolalarining ham davlat tili bo'lgan o'zbek tilini egallashlariga harakat qilishi, tilimizga muxabbat uyg'otishi zarur.

Nutqni rivojlantirish uchun tarbiyachi tez aytishlarni turli xil ovoz balandliklarida, turli sur'atlarda talaffuz qilishni talab etiladi, so'roq gaplarni so'roq ohangida, jarangdor so'zlarini (undov) jarangli ohangda aytishi kerak. Tarbiyachi mashg'ulotida jarangli va jarangsiz so'zlarning farqini tushutirishi, qaysi, qaerda, qanday ishlatilishi haqida ham aytadi. Bolalar ham o'z ovozlarini o'zgartirib yoki o'xshatib talaffuz qiladilar. O'yin va mashg'ulotda bolalar tovushlarini qanday chiqarayotganiga e'tibor qaratishi zarur. O'yin (milliy o'yinlarga ahamiyat berish) jarayonida bolalarning shaxsi takomillashib kishilar bilan muomala, o'quv va mehnat jarayonida tayyorlanish kabi turli xil ruhiyholatlarni shakllantiradi. Maxsus ta'limta'lim muassasalarida tarbiyalanayotganlar orasidagi ko'pgina bolalar oddiy o'yinlar mayl bo'ladilar. Buning sababi: birinchidan, o'yin o'tkazish usul va metodlarining yaxshi ishlanmaganligi bo'lsa, ikkinchidan, o'yin bolalar xayoti bilan etarlicha bog'lanmagan.

Asosan o`yin jarayonining birinchi bosqichida o`yin bilan tanishtiriladi, ikkinchi bosqichida esa tanlab, saralab, ajaratib oluvchi o`yin bo`ladi. Tarbiyachi o`yinni bu xilda olib borishi bolalarning har tomonlama etuk rivojlanishiga yordam beradi. Har bir o`yin bola xayotiga yaqin bo`lsa, ularning xayotdan lavxalar ifodalashga qaratilgan bo`lsa, o`yinchoqlar esa ular xayotida uchrab turadigan narsa, buyumlarni ko`rsatsa va o`yinchoqlar bilan o`ynash natijasida bolala qiziqishi ortadai. Aks holda o`yindan kuzatilgan maqsadga erishish qiyin. Bunda tarbiyachi bolaga yangi predmetning nomi va mohiyatini tushuntirishi lozim. Shu o`yin yoki o`yinchoqni o`ynash usullari bilan bolani tanishtirish zarur hisoblanadi. Tarbiyachi o`yin mashg`ulotlarini o`tkazishda dasturda (“Uchinchi ming yillikning bolasi” tayanch dasturi) berilganidek o`rgatib, mustahkamlab borishi shart. O`yinni rollarga bo`lib bajarish, bir-birlari bilan dialog asosida suhbatlashib, o`yinchoqlari bilan muloqotda bo`lib, o`zlariga yaqin bo`lgan odamlarning ismlarini aytib, buyumlarning qanday ishlatilishi haqida gapirib bajarishsa, og`zaki nutqlari rivojlanib lug`at boyliklarini ko`paytiradilar. Bolalar so`zlarini bir-biriga moslashtirib tuzadilar, o`z o`rnida qanday qo`llashni o`rganadilar. Bunda fikrlash his qilish idrok ham birga rivojlanib boradi.

Tarbiya bolalarni surtalarga qarab so`z birikmalari va gap tuzishga o`rgatishi muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachi bunga ham ma`suldir hamda oldimizga qo`yilgan maqsadga shundagina erishishimiz mumkin. Tarbiyachi oldingi nutq o`stirish mashg`ulotlari bo`yicha berilgan materiallarni yangi o`tiladigan mashg`ulotlar boshida takrorlab olishi kerak. Bolalarda shundagina olgan bilimlarini mustahkamlab olib, ko`nikma hosil qiladilar.

Maxsus ta`lim bolalar nutqini o`qtirishda so`zlarni to`g`ri talaffuz etish, yangi so`zlar bilan bolaning lug`atini boyitib, kengaytirishga alohida e`tibor beradilar. Bu bolalarni so`z birikmalari va gap tuzishda muhim ahamiyatga ega. Chunki bolalar u yoki bu narsa, voqea-hodisalar haqidagi o`z fikrlarini gap orqali bildiradilar. Tarbiyachi mashg`ulot davomida bolalarda o`tilganlar yuzasidan hosil bo`lgan savllarga javob beradilar, fikr almashadilar, tushunmagan joylariga tushuntirish kiritib izoh beradilar.

Shundagina bolaning nutqidagi kamchiliklarning oldi olinadi.

Bolalar har kuni o`z xayotlarida turli hodisa va voqea, narsalarga duch keladilar. Tarbiyachi yoki ota-ona bu haqida farzandlariga to`g`ri tushuncha va maslahatlar berishi, ularning nomlarini, nima uchun kerakligi yoki nmaga ishlatilishi haqida albatta to`liq tushuncha berishi shart. Bu bolaning og`zaki nutqidagi kamchiliklarni chiqarmaslikka, xatolarini tuzatishga imkon beradi, bolalar yangi bilim va tasavvurlarga ega bo`ladilar, hodisalar va buyumlarning nomlari, sifat va xususiyatlarni o`rganadilar.

Maxsus ta`lim bolalar lug`atini boyitish, nutqining ravon, silliq va ta`sirchanligini ta`minlashda bolalar adabiyoti ustida ishlash juda yaxshi natija beradi. Tarbiyachi biror bir hikoya yoki ertakni o`qishda uning mazmunini, bolaning yoshiga mosligini, so`zlarning soddaligiga va bolaning ongiga qanday ta`sir qilishini inobatga olmog`i shart. Bunda o`qitilayotgan ertakdagi ayrim so`z va iboralar bilan ishlash, bir tmondan, ertakning mazmunini oson hamda to`liq o`zlashtirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan bolalar lug`atini boyitish, undagi hodisalarni anglash ko`nikmalarini tarbiyalaydi, so`z va gaplarni o`zida o`zlashtirishga imkon yaratadi.

Inson olamga kelishi bilanoq onaning allasi, qo`shig`i, hatto, o`zini-o`zi ovutish uchun aytgan ertagini ham tushunadi. Bu fikrimiz ming bor sinab ko`rilgan. Yana qo`shimcha qilib ruhshunos olim Oygul Yo`ldoshevaning «Toshkent oqshomi» gazetasi sahifasida bir qator yosh onalarga bergan javoblari ham fikrimizga to`la-to`kis asos bo`ladi:

XULOSA

Bolada nutq kamchiliklarining kelib chiqishi sabablarini oilada har bir ota-ona, Maxsus ta'lim tarbiya muassasalarida tarbiyachilar, maktabda esa o'qituvchilar bilishlari zarur. Chunki nutq kishilarning til vositasi orqali aloqa jarayonining tarixan tarkib topgan formasidir. Shuningdek, nutq rang-barang ifodali tovushlarning majmuasidan iborat. Bu tovushlar oliy nerv sistemasining signallari vositasida nutq organlarining turlicha shakllanishi yoki harakati natijasida paydo bo'ladi. Shuning uchun nutq tovushlarini vujudga keltiruvchi manbalarini organlar fiziologiyasini, ularning faoliyatini o'rganish talaffuzdagi nuqsonlarning kelib chiqish sababini aniqlash, to'g'ri va ravon talaffuzni ta'minlovchi omillardan biridir. Nutq bolalarda asta-sekin shakllanadi, bola o'sib rivojlanib boradi. Aslida bola nutqning o'sib borishidagi hal qiluvchi bosqich bir yarim yoshdan besh yoshgacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Bu davrda bolaning nutqi muayyan sur'atda, besh yoshdan keyin esa nutq intensiv ravishda xilma-xil o'sib boradi. Biroq ayrim bolalarning nutqiy rivojlanishida bir qator kamchiliklar uchraydi va ma'lum bir sababga bog'liq bo'ladi. Mamlakatimizda fan-texnika yuksak sur'at bilan rivojlanib borayotgan bir paytda yosh avlod zimmasidagi mas'uliyat ham ortmoqda. Ularga berilishi lozim bo'lgan bilimning hajmi yil sayin oshmoqda.

Tadqiqotlarga asoslanib biz nutq nuqsonlarini bartaraf etishda turli logopedik ta'sir metodlardan foydalansak ko'zlagan maqsadga erishamiz. Logopedik ishda: amaliy, ko'rgazmali va og'zaki metodlardan foydalanilsa yoki nutqiy nuqsonlar korreksiyasi yaxshi natija beradi. Logopedik ish jarayonda quyidagi metodlarni qo'llasak ishimiz sermahzulligi oshib boradi.

Mashqlar - bu berilgan amaliy va aqliy harakatlarning ma'lum ketma-ketlikda bola tomonidan takrorlanishidir. Artikulyasion mashqlarni sistemali ravishda bajarib turish, tovushni nutqqa qo'yish va to'g'ri talaffuz etish uchun zamin tayyorlaydi. Mashqlar taqlidiy-bajariluvchi, konstruktiv va ijodiy turlarga bo'linadi.

O`yin metodi o`yin faoliyatini boshqa usullar: namoyish qilish, tushuntirish, savollar bilan birgalikda olib borishni nazarda tutiladi.

Maxsus ta`limyoshdagi bolalar bilan turli xil o`yinlar olib boriladi: ashulali, didaktik, harakatli, ijodiy, saxnalashtirilgan va x.k. Modellashtirish - bu modellarni yaratish, kullash va obektlarin tuzilishi haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga mo`ljallangan jarayondir.

Ko`rgazmali metodlar - bu bilim ko`nikma va malakalarni egallashda kurgazmali kurollar va texnik vositalar yordamida beriladigan ma'lumotlardir.

Kurgazmali metodlarga kuzatish, rasmlarni ko`rish, maketlar, diafilm, kinofilmlarni ko`rish, plastinka, magnitafonlarni eshitish, hamda topshirik namunasini, harakat usulini kursatish kabilar kiradi.

Logopedik ishda og`zaki metodlardan bolaning yosh xususiyatlari, nutqiy nuqson tuzilishi, korreksion ta`sirning maqsadi, vazifasi, bosqichini xisobga olgan holda foydalaniladi.

Logopedik ta`sir quyidagi shakllarda amalga oshirilganda: frontal, guruxli, individual mashg`ulotlar va dars natija ko`ngildagidek bo`ladi..

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak nutq kamchiliklarini bartaraf etishda differensiallashga metodlardan foydalanishning axamiyati katta ekan. Biz bo`lg`usi defektolog – logopedlar sifatida hamda barkamol avlod tarbiyachisi sifatida buni yaxshi bilmog`imiz va tarbiyaviy ish jarayonini va o`qitishni shu asosda tashkil etishni o`rganmog`imiz lozim.

Bundan tashqari ota –onalar bilan ishlash, mustaxkam aloqa o`rnatish, logoped tomonidan berilgan topshiriqlarni uyda takrorlanishiga e`tibor qaratish ishlari ham to`g`ri tashkillashtirilishi kerak. Logoped ish faoliyatida didaktik o`yinlar, harakatli o`yinlar, so`z o`yinlaridan unumli foydalanish, xalq og`zaki ijodi namunalarini ish faoliyatimizda unumli qo`llash ham bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklarini bartaraf etishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Karimov I.A. “Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori”. Toshkent. 1998.
2. Karimov I.A. O`zbekiston kelajagi buyuk davlat. Toshkent. O`zbekiston. 1992.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. O`zbekiston. 1995.
4. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat engilmas kuch. Toshkent. 1998.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni barataraf etish yo`llari va choralari. Toshkent. 2009.
6. O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni. 1997.
7. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” 1997.
8. Mustaqil O`zbekistonning yosh avlodni tarbiyalashda mahalla, maktab va oila hamkorligi konsepsiyasi. Toshkent. O`qituvchi. 1994.
9. Zayseva G.L. «Jestovaya rech». «Daktilologiya». M., 2000 g.
10. T. Qudratov. NUTQ madaniyati asoslar Toshkent o`qituvchi 1993- yil
11. Logopediya (pod. red. L.S.Volkovoy) - M., 1989.
12. Shomaxmudova R. Mo`minova L. bolar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. “Toshkent” o`qtuvchi 1993-yil
13. Muminova L.R., Ayupova M. «Logopediya» T. 1993 y.
14. Boshlang`ich ta`lim va defiktologiya taliming samaradorigini oshirish masalari”. Ilmiy metodik maqolalar to`plami “Toshkent” 2000-yil.
15. K.Mamedov, G.Berdiev, SH.Xoliqova. Maxsus psixologiya ma`ruzalar matni. Toshkent, 2001.
16. Bolalarning maktabga tayorgarlik darajasiga qo`yiladigan dasturi. Toshkent 1997-yil.
17. “Maktab va hayot” jurnali
18. Shomaxmudova R.Sh., Mo`minova L.R. «Bog`cha va kichik maktab yoshidagi bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni tuzatish». T., 1981 y.
19. Ayupova M. «Korreksion ishlar metodikasi. (ma`ruzalar matni)». T 2005 y.

20. Bolalarni maktabga o'qishga tayyorlash Toshkent 1997-yil (Ilmiy to'plam).

21. Shoabduraxmonov Sh., M.Askarova, A.Xojieva va boshqa. «Hozirgi o'zbek adabiy tili». Toshkent, O'qituvchi, 1980 y.

22. Islombekova Z.. «Talaffuzga o'rgatish va eshitish qobiliyatini rivojlantirish metodikasi» (Ma'ruzalar matni) T.: 2001 y.

[25WWW.TDPU.uz](http://WWW.TDPU.uz)

26. ZiyoNET.www.@mail.ru